

V. V. Xlebrakov



QAFASDAGI
QUSH

Rus adabiyoti durdonalari

VELIMIR VLADIMIROVICH
XLEBNIKOV



**QAFASDAGI
QUSH**

She'rlar va dostonlar

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2021

UO'K 821.161.1-1 ✓

KBK 84(2Ros-Rus)

X 63 ✓

Rus tilidan: **Karim Bahriyev, O'roz Haydar, O'ktam Mirzayor, Tursun Ali, Oygul Suyundiqova, Ochil Tohir, Abdumajid Azim, Zikrilla Ne'mat, Humoyun Akbarov, Rustam Musurmon, Bahrom Akbarov** tarjimasini

Velimir Xlebnikov – (haqiqiy ism-familiyasi Viktor Vladimirovich Xlebnikov, 1885–1922) rus shoiri va yozuvchisi. Rus avangardining eng ko'zga ko'ringan adibi. Rus futurizmining asoschilari ro'yxatidan joy olgan shoir she'riy til islohotchisi hisoblanadi. Uning she'rlarida muhabbat, sadoqat, vatan ramziy ishoralarda va badiiy bo'yoqlarda yorqin talqin etiladi. Shoir ijodiga bo'lgan yuksak ehtiromni hisobga olib, ayrim qiyosiy tarjimalar ham berilmoqda. Bu esa, shoir ijodini teranroq tushunishga va anglashga yordam beradi.





OSIYO

Hamisha cho'ridir, lek qoracha ko'ksida
shohlarning vatani bor,

Qulog'ida halqa emas,
davlatning muhri.

Gohida – homila bilmagan bokira dildor,

Gohida doyadir – isyon kampiri.

Senki, ul kitobni varaqlagaysan,

Uning yozuvlari dengizlarning qo'li ila bosilgan.

Tunda yarqiragan siyohdir odamlar,

Shohlarning otilishi

hayratning darg'azab belgisi bo'lgan,

Qo'shinlarning zafari – bir vergul,

Ko'p nuqtalar – jang maydoni, bas,

uning sokin quturishida

Xalq qahri ayondir, namoyondir

Va asrlarning yoriqlari – qavs.





ALFEROVO

Novgorodliklarning qadimiy nasli,
Mag'rur avlodlarga ruh-u qon bergan,
Ko'plab chiqqan edi lashkarboshilar,
O'larkan, «baxtliman», deya jon bergan.

Ular oppoq, baroq tulporni minib
Polsha qirolligin aylagan vayron.
G'alaba, makkordir muzaffarlik ham,
Oldin sevganlarni etadi hayron.

O'tirardi keksa jo'ka tagida,
Izmail jangida g'olib zot edi,
Qog'oz buyruqlarga ko'milib, oxir,
O'larkan, shivirlar: «G'olibmiz!» – dedi.

Tog'am ot choptirar jarning ustida,
O'rislar Gunibni¹ zabt etgan bir on,
Tatar qilichining keskir zarbidan
U o'ldi to'lg'anib – daryo to'la qon.

Goho so'qqaboshlar, goh qarg'a ahli,
Tulpor taqasining jarangi kuylab,
Uchqur chavandozlar to'dasi kabi
Bordilar Dunayning qirg'og'i bo'ylab.

Bobo otxonalar taqalaridek
Qadamlab boradi O'ris saltanat,
Faqat urushlar-da qoplangan tarix,
O'rtoqlar o'limi keltirgan shuhrat.

¹ *Gunib* – joy nomi.

U xizmatda edi – Sharq tomonlarda,
O'limning o'qidan qochmadi abjir,
Qo'lini ko'ksiga bosib, dushmanga
O'ldirgani uchun dedi: «Tashakkur!»

Endi uning ota hovlisi yonar,
Yonar saroylari va qishloqlari,
Dala binolari, uylar lovullar,
Tun bo'yi lovullab yondi bog'lari.

Biroq, sodiq qolib ajdodlariga,
Ota vasiyatini anglab kuchini,
U sokin yuradi yotog'i ichra
Va silab qo'yadi mo'ylov uchini.

Ular qatoriga kiradi u ham!
Poytaxt asilzoda, oqsuyaklari,
G'azabli yuzlaring jiddiy burgancha,
Devor suratidan qaraydi bari.





* * *

Yillar, odamlar va xalqlar
Manguga ketadilar,
Oqib ketayogan suv kabi.
Tabiatning inja ko'zgisida
Yulduzlar – to'r qarmoq, biz – baliqlarmiz,
Zulmatda go'yoki arvoqlar – ilohlar...





OCHLIK

Nega o'rmon bo'ylab qochar bug'u, quyonlar,
Olis ketarlar?
Tog'terak po'stlog'in yedi odamlar,
Qora qarag'ayning yashil barglarin yedilar...
Ayollar va bolalar kezar o'rmonda,
Oq qayin yaprog'in yig'ib, jamlarlar,
Sho'rva qilib, qatiq-osh qilib osharlar,
Qarag'ay danagi, kumushrang po'panagi, –
O'rmonning yemagi.
O'rmon izquvarlaridir bolalar,
Kezar daraxtzorlarni,
Gulxanda oq chuvalchaglarni, quyon karamlarni,
Semiz qurtlarni,
Yoki o'rgimchaklarni qovurarlar,
Chirsillatib, chaynab so'rarlar –
Ular mazaliroq yong'oqdan.
Tutarlar bo'rsiqlarni, sarg'ish kaltakesaklarni,
Pishildoq ilonlarni otarlar kamondan,
Olabutani, sho'rani toparlar – non yoparlar.
Ochlikdan kapalaklar ortidan choparlar:
Buguncha yig'dilar bir qopcha,
Kapalak sho'rvaga to'lar likopcha –
Onalar qaynatib beradi.
O'rmonaro sakrab borayotgan quyonni ko'rdi
Bolalar, aniq tushida,
Aniq u dunyoning yorug' ko'rinishi edi bu,
Boqardilar hayrat bilan, ko'zlari katta-katta,
Ochlikdan ochilgan ilohiy ko'zlar,

Haqiqatga ishonmaslar.
Lekin quyon qochar edi chaqqonlik bilan,
Qorayib borardi qulog'in uchi.
Ortidan borardi kamon o'qi uchib,
Biroq kech edi – qochib ketdi to'yimli tushlik.
Bolalar turardi hayratga to'lib...
«Kapalak, qaragin, kapalak uchar...»
Ushla, yugur! Ana moviy kapalak!..
O'rmonda rutubat. Bo'ri horib keldi olisdan,
Keldi o'tgan yili
Buzoqchani tutib yegan yeriga.
Chug'urchuqday uzoq aylandi, har yerni iskadi,
Hech vaqo qolmagan –
Chumolilar talagan, –
Yo'q qoq tuyoqlar boshqa hech balo.
Alamga to'ldi bo'ri, g'ijim qoburg'asin siqqancha zo'rg'a,
O'rmondan nariga ketdi badarg'a.
Unda qor tagida mudragan
Alvonqoqoq karqurlar va qari karqushlar bor,
Bosadi og'ir panjalari bilan,
Qorlarga sachraydi qon...
Tulkivoy, momiq gulxanday,
G'ijimlanib chiqar to'nkaga
Va o'ylaydi istiqbolini...
Kuchuk bo'lsamikin?
Insonlarga xizmat qilsamikin?
Qanchalar tuzoqlar tortilgan –
Istaganiga ilinmoq mumkin...
Yo'q, bu xavfli ish.
Malla tulkivoyni yeb qo'yadilar
O'z itlarini ham yegan odamlar!
Qishloqda qolmadi biror it,
Barchasi yeyildi, hech kim hurmas endi...
Momiq kaftlari bilan yuvinar tulki,

Olov tusli dumin yelkanday ochgan.
Ming'irlyaydi tinmay olmaxon shu choq:
«Qani cho'chqa yong'oq, qaydadir yong'oq? –
Yeb ketdi odamlar!»

Sokin, shaffof har yon, oqshom tushmoqda,
Shitirlab qarag'ay jimgina,
Tog'terakni o'par, o'tar yel esib...
Ehtimol, ertaga ularni nonushtaga ketarlar kesib.





YER SHARI RAISLARINING XITOBNOMASI

Faqat biz, uch yillik urushni o'rab,
Bir vahshatli karnay singari sarbast
Kuylaymiz baqirib, qichqirib, kuylab,
Deymiz haqiqatning jazbasidan mast –
Kurrayi zaminning hukumati bor,
U mavjuddir.

U hukumat – Biz.

Faqat biz taqqanmiz peshonamizga
Yovvoyi tojli yer hukmdorimiz,
Qoraygan qahrimiz shafqatni bilmas,
Bosqinchilik haqqin talabgorimiz,
Zamon dastagini dast ko'targanmiz,
Biz – olovga solamiz insoniyatning xomroq loyini,
Vaqtning ko'zasida aylantiramiz.

Biz – inson jonini ovlaymiz, axir,
Dengizning sarg'aygan burg'usin chalib,
Chorlaymiz insonlar podasini to'p –
Eh-he! Kim bugun bizlar bilandir?

Kim bugun biz uchun do'st va o'rtoq?
Eh-he! Bugun kim bizning ortda?

Shunday raqqosmiz biz, insonning cho'poni,
Insoniyat cho'poni, surnay puflovchi.

Eh-he! Kim ko'proq?

Eh-h! Kim uzoqroq?

Faqat biz, o'zimizning kelbatimiz
Va ismimiz balandligiga chiqib,
Sizing ochlik dorlaridan kesilgan
Va o'lim oldidagi vahshatdan buzilgan
Alam to'la qorachiqlaringiz aro,

Inson nolishining to'liqlari oldida
Istaymizki, atasinlar va ulug'lasinlar bizni
Kurrayi zaminning raislari deb.
Qanaqa ablahlar – deydi kimlardir,
Yo'q, ular avliyolar, der boshqalari.
Lekin biz kulamiz, xudolar kabi,
Va imo qilamiz quyosh tomonga.
Uni itlar uchun ip bog'lab sudrang,
Osib qo'ying baland o'z so'zlariga:
Tenglik, birodarlik, ozodlik.
Uni sud qilinglar yalangoyoqlar sudida
Juda ham jilmaygan
Bahor oldidan
Bu go'zal so'zlarni tilga olgani uchun,
Shu so'zlar tug'dirdi
Shu darg'azab qarashlarni.
Aybdor – Oftobdir.
Biz bajaramiz quyoshning shivirini ham,
Uyingizga bostirib kiramiz, go'yo
Uning buyruqlarin,
Qat'iy amrlarining Bosh vakolatlisimiz.
Insoniyatning semiz to'dalari
Izlarimizdan ergashar,
Biz o'tgan yo'llardan kelar.
London, Parij va Chikago
Minnatdor bo'lib o'z ismini
Bizning ismimiz bilan almashtirar.
Biroq biz kechiramiz bu tentaklikni.
Bu olis istiqbol,
Hozircha esa, onalar,
Bolalaringizni olib ketinglar,
Agar qayerdadir davlat ko'rinib qolsa.
O'smirlar, yuguring va g'orga kiring,
Yashirining dengiz qa'riga,
Agar qayerdadir ko'rsangiz davlatni.

Qizlar va murda hidiga chidolmas kimsalar,
«Chegara» soʻzi aytilsa, hushdan ketinglar:
Chegaralardan murdalarning hidi keladi.
Axir, har bir toʻnka qachondir
Juda goʻzal qaragʻay daraxti boʻlgan,
Jingalak yaproqli qaragʻay.
Toʻnkaning, kundaning yomon yeri shu,
Unda kesadilar inson boshini.
Shunday qilib, davlat va sen –
Tushga kirgan eng yaxshi soʻzlar –
Unda bor 11 tovush,
Koʻplab qulayliklar va yangiliklar,
Sen soʻzlar oʻrmonida ulgʻayding:
Kuldon, gugurt, sigaret qoldigʻi,
Tenglar orasida teng.
Biroq nega davlat insonni yeydi?
Nega hukumat odamxoʻr boʻldi,
Vatan uning sassiz xotini?
Ey! Eshiting!
Biz insoniyat nomidan
Oʻtmish davlatlariga
Muzokara uchun murojaat qilamiz:
Agar siz, davlatlar, goʻzal boʻlsangiz,
Oʻzingiz aytishni sevganday goʻzal boʻlsangiz,
Fuqarolaringizni – xizmatkorlaringizni
Aytishga majburlaganday
Goʻzal boʻlsangiz,
Sizga Xudolarning ovqati nechun?
Nega biz, odamlar, sizdan qoʻrqamiz,
Nega milkingiz va qoziq tishlaringiz orasida
Chaynalib sinamiz charsillab?
Eshitinglar, makonlarning davlatlari,
Mana, uch yildan buyon
Shunday koʻrsatasiz,

Go'yo insoniyat –
faqat shirinlik,
Og'izda eruvchi shirin bo'rsildoq;
Agar qattiq non ustaraday keskinlashsa, desa:
Onajon!
Ne kechar, agar uning ustidan bizni sepishsa,
Zahar sepgan kabi?
Shu ondan biz

«Yaratganning marhamati» – degan so'zni
«Fidji marhamati»ga almashtirishni buyuramiz.
Janob yer shari
(Uning irodasi amalga ohsin)
O'z hukm doirasida
Butxona odamxo'rligiga izn berarmi?
Yemakka aylangan odamlar
Yuksak muteligi tufayli
Ularning tanovul qiluvchi
Oliy xo'randani himoya qilmaslarmi?
Eshiting! Hattoki chumolilar
Ularni chaynagan ayiq tiliga
Chumoli kistlotasini sachratarlar.
Agar rad qilsalar,
Makonlar davlatlari, huquqiy butxona kabi,
Zamin hukmidan baland, desalar,
Biz inkor qilamizmi, inson ham
Qonli pufaklarning
Ikki qo'lli davlati
Va u ham butdir, deya olamizmi.
Agar davlatlar yomon bo'lsa,
Ichimizda kim ularning
Ko'rpa tagidagi uyqusini kechiktirmoqqa:
Mangu uxlatmoqqa
Biron ish qiladi?
Siz norozisiz, o davlatlar

Va ularning hukumatlari,
Siz ogohlantirmoqqa tish g'ijirlatasiz
Va sakrab qo'yasiz. Nachora!
Biz – oliy qudratmiz
Va hamisha
Davlatlar isyoniga,
Qullar isyoniga –
Bir aniq xat bilan
Javob bera olamiz.
«Yulduz ustdavlati» so'zining kemasida turib,
Tebranish onida muhtoj bo'lmay tayoqqa,
Biz so'roq qilamiz, nimadir yuksak:
Bizmi, qo'zg'alon huquqi kuchi bilan,
O'zimizning birinchiligimizga ishongan holda,
Kashfiyot to'g'risidagi qonunlar himoyasidan foydalanib,
O'zimizni kurrayi zaminning raislari, deb e'lon qilganlar,
Yoki sizmi, o'tmishning
Alohida davlatlarin hukumatlari,
Ikki oyoqli ho'kizlar
Jangohi yonidagi jaydari qoldiqlar,
Siz murdalar yiringi bilan bo'yalgan?
Bizga,
Nur qonunlariga ko'ra,
Qismat tenglamalari yordamida qurilgan
Insoniyat daholariga kelsak,
Biz,
O'zini hukmdorlar deb ataydigan,
Davlatlari va boshqa kitob nashriyotlari
Va «Urush va Kompaniya» nomli savdo uylari bo'lgan,
Sizning pivoyingiz va bizning
Himoyasiz qizil to'lqin bo'lgan qonimizning
Uch yoshli sharsharasiga
Faravonlik tegirmonini o'ratgan
Janoblarni inkor qilamiz.

Biz, kelishimizni ko'rib,
O'z qilichiga yiqilgan,
Tilidagina Vatan so'zi bor,
Davlatlarni ko'ryapmiz.
Harbiy-dala nizomining yelpig'ichini silkitib,
Siz shartakilik bilan urushni
Insonning kelinchagi toifasiga kiritdingiz.
Sizlar, makon davlatlari, tinchlaning,
Yig'loqi bo'lmangiz qizchalar kabi.
Siz biz iroda etgan qonunlar soyasiga kirasiz,
Xususiyl insonlarning xususiyl bitimi o'laroq,
Dante muxlislari jamiyati bilan birga,
Quyonlarni yetishtirish,
Yumronqoziqlarni yo'qotish tashkilotlari qatorida.
Biz sizga tegmaymiz.
Siz bir yilda bir marta yillik majlisga to'planasiz,
Uyushmalar huquqiga tayangan holda,
Kamayayotgan kuchlaringizni ko'rikdan o'tkazasiz.
Ostavaytes dobrovolnim soglasheniyem
Hech kimga kerak bo'lmagan,
Hech kimga ahamiyati yo'q,
XVII asr kampirining
Tish og'rig'i kabi zerikarli,
Xususiyl shaxslarning
Ko'ngilli shartnomasi o'laroq qoling.
Koinotni xotirjam boshqarayotgan,
Jilovlangan taqdirning chavandozi bo'lgan
Mutafakkir qo'lidagi
Noayon ilohning olovi kuydirgan
Maymunning tukli oyoq-qo'li singari,
Siz bizga mansub bo'lasiz.

Bundan tashqari: biz

Vaqt jamoalari tomonidan qilinadigan

Qo'pol va shafqatsiz muomaladan
Davlatlarni himoya qilish uchun
Jamiyat barpo etamiz.
O'tmish va Kelajakning
Kesishgan yo'llaridagi strelkachilar kabi,
Biz
Poyezdning oyina shafag'i
Jo'kali chiptakovush bilan almashgani kabi
Sizning davlatlaringiz
Ilmiy tashkillashtirilgan insoniyat bilan
Almashuviga sovuqqonlarcha boqamiz.

O'rtoqlar-ishchilar! Bizdan xafa bo'lmang:
Biz, me'mor-ishchilar singari,
Umumiy maqsadga o'zimizga xos yo'l bilan boramiz.
Biz – qurolning o'ziga xos turimiz.
Shunday qilib,
Uch so'zdan:
Kurrayi zamin hukumati so'zlaridan iborat bo'lgan
Harbiy qo'lqop
Tashlandi.
Qizil chaqmoq kesgan
Irodasizlikning moviy bayrog'i,
Shamolli shafaqlar, tongi quyoshlar bayrog'i
Ko'tarildi va zamin uzra hilpiramoqda,
Mana u, do'stlarim!
Kurrayi zamin hukumati!
Yulduz hukumatiga ruxsatnoma:
Sun Yatsenga, Rabindranat Thakurga,
Vilsonga, Kerenskiyga.



HAMMAGA ERKINLIK

Hamma erkinlikda – bundan buyog'i.
Oqqush qanoti bor uchqur odamlar
Qo'lida mehnatning alvon bayrog'i.

Erkning yondirguvchi otash ko'zlari,
Unga qiyos qilsak, olov – muz kabi,
Mayli. Bu zaminda eski sanamlar!
Yangisini chizar ochlikning labi...

Birga yuguramiz olov qo'shiqqa,
Hammamiz erk uchun – oldinga tomon!
Agar halok bo'lsak – so'ng tirilamiz!
Keyin tirilajak har bitta inson.

Biz yo'lga tushamiz hayratli, hayron,
Quloq solamiz biz – gursullar qadam.
Agarki zanjirband bo'lsa xudolar,
Erkinlik beramiz ilohlarga ham...





O'LAR CHOG'I

O'layotgan otlar – nafas oladi,
Gullar o'lar ekan – sokin so'ladi,
O'lgan quyosh – so'nib ufqqa bo'ylaydi,
Odamlar o'larkan – qo'shiq kuylaydi.





DUNYO...

Qopdan yerga tushdi,
Sochildi buyum
Bir uyum.
Va men o'yladim,
Ajabo,
O'zini osgan marhumning
Labida qotib qolgan,
Hali iliq kinoyadir bu –
Dunyo.





ISTAK

Menga kerak emas ko'p narsa!
Bir parcha non
Qultum sut bo'lsa.
Yana tepamdagi bu osmon,
Yana bulutlar!





MEHNAT NAVRO'ZI

Insoniyatning ilk kuni biz yana!
Odam Ato borar odam-la to'lib
Bayramga shoshilar olomon yana,
Bir-biriga so'zlar tashlaydi kulib.
Zardo'shtning
Tillorang o'rmonlarida
Maysalar so'zamol, maysalar chechan!
Oy oyining ilk kunidir bu.
Uxloq nutqimizni unutmadi, hoy.
Oyning ismi – Oy bo'lgan yurtda
Yarim tunda sochar nurlarini oy,
Ikki so'z, ikki oy,
Ikki kabutar
Oynaga urilar sirdosh-u dilbar...
Alvon tushar, alvon
Daraxtda baland.
Kuchli mehnat o'tar o'ynab qadamni
Poshnasining to'voni bilan.
Karnaychilar shonli yo'lga chiqadi,
Karnayi nayini labga tiqadi.
Shahar ko'zlarini yashnatib,
Shiorlarning oltin so'zini tutib,
Goh turib, yiqilib gohida faqat,
Beg'am o'tib borar zahmatkash Mehnat.
Karnaychi, shox kabi uning karnayi,
Ilonday buralgan, egmadir nayi!
Ochiqdir o'ng-u so'l,
Quvnoq sehgarga
Mana, kengroq yo'!

Qizil bayroq olib o'tarlar porlab,
Ko'cha yoqasida ul bayroqdorlar,
Charchaganlar, endi qo'zg'oling!
Mehnatni quvganlar, yo'qoling!
Bugungi kunimiz olam bayrami.
Olisda, o'risning erkiga asir,
Rashkning qorong'u zindoni ichra,
Islomning mahzuna, keskin qizlari.
Qora liboslar-la yopib yuzlarin,
Erkinlik kunini kutar o'zlari.
Qardoshim, qo'liga qurolni olib,
Ot choptirib borar juda alomat,
Ortidan chopadi bul chavandozning
O'rtog'i bo'lay deb zafar va omad.
Suvoriyning yuzi salla-la yopiq,
Ko'ksida tasmaga taqilgan har o'q,
Charchoq-da harsillar qaysar tulporlar,
Tog'larda kezadi yovqurday erlar.
U ot choptiradi dalada, toshda,
Shamollarga qarshi, qaysar bahodir,
Goh yerga yiqilar, goh yana chiqar,
Yana egar uzra cho'yanday chayir.
Tog'li ko'chmanchilar – jiddiy askarlar,
Birodarlar kabi miltiq tutgaylar,
Qora daraxtlarning novdasi aro,
Qurol va tor sasi bilan o'tgaylar.





OSIYO

O, Osiyo! Sen-la o'zni qiynayman.
Qizning qobog'iday ko'kni o'ylayman.
Nozik sihatlikning bo'yni singari
Sening bu oqshomgi ziyofatlaring.
Qani boshqa kunni bashorat qilgan?
O, moviy daryoning sochlari bilan
Osiyo tizzamni to'ldirsa edi
Va qiz kuylasa, kuldirsa edi,
So'ng baxtdan tohsa-yu yig'lasa edi,
Ko'z yoshlarin artib sochning uchida.
Axir, u sevardi! Azoblanardi!
Koinotning qalbi urar ichida.
Yana bosib kelar tuyg'ular sarxush,
Yana yangramoqqa yurak topsa vaj:
Mohavira tursa, qo'zg'olsa Zardo'sht,
Va kurash qoplagan suvoriy Savaj.
Men u o'lganlarga bo'lsam zamondosh,
Topsam savollarga mukammal javob.
Sen esa, charog'on pulni sochganday,
Oyog'imga yoysang sochingni shu tob.
«Muallim, – deb aytsang menga shivirlab, –
Rostmikin, haqmi bu, biz bugun
Hammamiz birlashib xabarlashamiz,
Erkinlik yo'llarin izlamoq uchun?»





* * *

Agar insoniyatni soatlarga aylantirsam
Ko'rsatsam – asr kapgiri ketmoqda zarbdoy,
Nahotki zamonamizning doirasidan
Urush o'chib ketar, alifboda keraksiz harfdoy?
Inson nasli tagligi urushdan bo'lgan oromkursida
Ming yillardan beri o'tirib, keti qabardi,
Men sizga aytayin, kelajakdan sezim olaman,
Kelar insonlik ortidan tushlarim, dardim.
Men bilaman, sizlar – inonchi haq bo'lgan bo'rilar,
Otganlaringizning beshligi bilan kaftimni siqaman sizni,
Biroq ajoyib chevar bo'lgan yaratuvchining
Taqdir ignalari shitirlashin eshitmayapsizmi?
Men kuch bilan, fikr to'lqini bilan
Mavjud hukumatlar binolarin to'kib sochaman,
Ertakmonand o'sgan o'shal Kitejda
Toatlilarga ko'hna devonalik sirrin ochaman.
Kurrayi zamin raislarining to'dasi,
Yashil po'stloqli dahshat ochlikka tashlanadi u itlar,
Mavjud har bir hukumatning qulflariga
Osongina tushar bizning kalitlar.
Soqli bor jonon
Va'da etilgan toshni otgan kuni,
Aytasiz: «Bu o'sha,
Biz asrlar bo'yi ketdik uni».
Insoniyat soatlari, shundoq,
Mening fikrlarim kapgiri bilan qo'zg'oting!
Ular hukumatlar va kitoblarning suiqasdi bilan o'ssinlar – ular.
Zamin nokerak buyuk bo'lsin!

Kur Zam Rais buyuk!
Unga aytilgan qo'shiq buyuk:
Men aytaman, Koinot –
Hisob-kitob varag'idagi gugurt kuyugidir qotgan.
Mening fikrlarim – kalitdir o'sha eshikka,
Eshik ortida kimdir o'zini otgan...





* * *

Yana bir bor, yana bir bor,
Men siz uchun
Yulduzman.
Qayig'ining yulduz bilan burchagini
Xato olgan dengizchiga
Fojia bo'lsin:
U toshga urilar,
Suvosti taqirligiga tushar.
Qalbining men bilan burchagini
Xato olgan sizga ham fojia bo'lsin:
Siz toshlarga urilasiz, parchalanasiz
Va toshlar
Sizning ustingizdan kular,
Tirjayib labi,
Xuddi siz mening ustimdan
Kulganingiz kabi.





AZA

Murdalar qatori turar yalang'och,
Ajal tilovatin hazin qildilar.
Polk esa turibdi, ko'zlari qiyg'och,
Uchuvchilar yerga soya soldilar.

Emanzor egildi qaddi bukilib,
Qishloqning kimsasiz chetiga bordik,
Biz aytdik baralla: «Samoga sharaf!» –
Va marhumlar tanin yoqib yubordik.

Bizlar odammizmi yo taqdir o'qi,
Barimiz turibmiz o'sha bir qo'lda?
Yo'q, aldanmoq yo'qdir, yo'q erur saboq,
U xandaqlar esa olis bir yo'lda.

O'lganlarni yig'di tirik qolganlar,
Marhumlarning malla sochi shovullar.
Yog'ochlar ustiga murdalar terib,
Biz motam rusmini qildik uvullab.

Qora tutun o'rlar samoga baland,
Qop-qora, shiddatli, quyuq havosi.
Biz turdik ularni qurbonlik qilib,
Jaydari odat shu, shudir marosim.

Cho'qqilar poyida, yuz ko'l oldida
Qanchalab yigitlar qurbon bo'ldi-da.
Qaqshatgich emanning o't-gulxanida
Rus tanini yoqdik, ko'ngil so'ldi-da.



O'lik vujudlarning qat'iyatidan
Don daryosi yorug', Irtish yorishar.
Ko'kimtir tutunlar uchar buralib.
Biz esa turibmiz, do'stlar turishar.

Qora tutun bo'lib o'rlar samoga
Asriy emanzorlar, yonadi yomon,
Miltiqlarni qoqib, shoshganча darhol
Bizlar o'girildik shoshib o'ng tomon...





GAPIRING, QICHQIRING, OLIB KELINGIZ!

Siz, qorin ikkita yo'g'on ustunga ortganlar,
Sovet oshxonasidan tentirab ko'chaga chiqqanlar,
Bilasizmi, bu butun buyuk o'lkamiz,
Ehtimol, o'lmoqda, bilasizmi siz?
Bilaman, quloqlaringizning terisi
 qo'toslarnikidan ko'ra qalinroq, tarang,
Uni faqat tayoq bilan silkitish mumkin.
Nahotki siz «Ochlik haftasi»dan baytalday
 qochasiz garang,

Qochasiz butun mamlakat
Ochlik changalida qalqib turganda?
Endi murdalar, murdalar va murdachalar
Yulduzli osmonga boqib turadi,
Siz esa borasiz va sotib olasiz
Oqshom uchun – oq nonning ulkan bo'lagin.
Siz o'ylaysizki, shilqim bir pashshadir – ochlik
Va uni oson haydamoq mumkin,
Biroq, shuni biling – Volgada qurg'oqchilik:
Olmoq uchun emas, bermoq uchun – yagona fursat!
Katta nonlarni olib bu tomon yuring
«Ochlik haftasi» yig'implariga,
Bir yutum ovqatni berarkan,
Ochlikdan qariganlarni qutqaring!
Volga daryosi hamisha sizni boqqandi,
Endi u yarim o'likdir.
Falokat kattadir, yana kuchayar, ko'ring –
Baqiring, qichqiring, bong uring!



* * *

Badbashara maxluq – cho‘qqida yashar,
Undan badbashara uning orqasi,
Tutib oldi ko‘za ko‘targan qizni,
Juda go‘zal edi boqishi, sasi.

Qiz xuddi mevaday osilib turar,
Jundor qo‘llarning yo‘g‘on shoxida.
Bahaybat, yaltoqi bu badbashara,
Xursanddir, ovutar o‘zin gohida...





* * *

Men bilmayman, Zamin aylanar yo yo‘q,
Bu so‘zning satrga tushishiga bog‘liq.
Bilmayman, mening momom va bobom
Maymun bo‘lganmikin, chunki bu mening
shirinlik yo nordonlikka o‘chligimga bog‘liq.
Lekin bilaman, qaynagim keladi
va quyoshni,
Hamda qo‘llarimning tomirlarini birlashtirsin bir titroq.
Biroq istayman, yulduzning nurlari o‘psin
ko‘zlarimning nurini
Bug‘u bug‘uni o‘pgani kabi (o, ohuning go‘zal ko‘zlari!).
Biroq men istayman, sevgan qizimning sochlarini,
masalan, vaqt bilan
Almashtirilsa, nimadir qolar.
Men istayman, men o‘zimni
Quyosh, osmon, marvarid to‘zoni bilan
Birlashtiradigan umumiy ko‘paytiruvchini
Qavsdan chiqarishni istayman.





* * *

Men Sudak bo'g'ozini o'tdim kechib.

Men yovvoyi otga o'tirdim.

Hayqirdim:

Rossiya yo'q, u boshqa qolmadi,

Uni parchalashdi, Polsha singari.

Va odamlar dahshatga tushdilar.

Aytdimki, zamonaviy o'risning yuragi

barmoqday, jimjiloqday.

Va odamlar tavba qildilar.

Men aytdim:

O, kulinglar, kuldigichlar!

O, kulinglar, kuldigichlar!

Men aytdim:

Yo'qolsin Gabsburglar! Jilov

Gogensollernlarga berilsin!

Men burgut pati bilan yozdim. Ipakday,

tillorang, u ulkan pat o'zagi

atrofida sollanar edi.

Men jozibali ko'l bo'ylarida yurdim, yodimda,

kavushda va moviy ko'ylakda,

O'zim ham jozibali edim-da.

Qo'limda ko'hna mis cho'qmorim bor

yumaloq to'qmoqlari bilan.

Mening ikkita qamishdan nayim

va arralangan shoxim bor edi.

Men suratga tushgandim, qo'limda bosh chanog'i.

Men Petrovskda dengiz ilonlarini ko'rdim.

Men O'rolda Kaspiy suvlarini

Karsk dengizlariga to'kdim.

Aytdimki:

Yuksak Kazbekning qorlari mangudir, biroq
menga kuzgi O'rolning
bir pokiza parchasi azizroq.

Men Greben tog'larida yapaloq baliqning
tishlarini topdim
va Fir'avn aravasining g'ildiragi
balandligidagi chig'anoqlarni topdim.





* * *

Men muzaffarman: endi
Ko'rimsiz xalqlarni boshqaraman,
Kipriklarimda e'tiqod uchqunlari balqar,
E'tiqod mo'jizaning madadkoridir.
Qayga boramiz? Tujjorliksiz berayin javob:
Mendan bo'yi baland Turkiston qoraqiyog'idan
Xalq, boshpanasidan ayrilgan uy kabi,
O'ziga tom bo'yiday devor qurajak.





* * *

Fillar dandon tishlari bilan shunday urishardiki,
Ular musavvir qo‘li ostidagi
Oq toshlarday tuyular edi.
Bug‘ular shoxlari bilan chirmovuqday o‘ralashar,
Go‘yo ularni o‘zaro hissiyotlar va o‘zar xiyonatlar to‘la
Qadimiy nikoh birlashtirgan kabi.
Daryolar dengizlarga shunday quyiladiki,
Go‘yo: bittasining qo‘li bo‘g‘ar ikkinchisining bo‘ynini.





* * *

Qushlar uchmay qo'ydi endi
Chug'urlab, chirillab.
Ular endi uchmaydi aslo
Bargday dirillab.

Bulutlar ortiga patlar cho'zilar
Sirli qanotlarni yozib batamom.
Yuzsizlik ilmining qochog'iman men,
Bulutga teskari tomon chopaman...





* * *

Rossiya ichishni unutdi tamom,
Ularda bor edi abad sharobi,
Ilk bora o'qigan ko'hna maktubda
Taqdirning xatini xatlagan kabi.

Sen sokin qarading o'sha maktubga,
Bola termulganday kattaga tomon,
Yovuz bir sirli kuch boqardi zimdan,
Maktubning ichidan boqardi yomon...

Karim BAHRIYEV tarjimalari





IRODA

U tomonga – ozodlik uchun
Tug' ko'tarib o'tar odamlar.
Oqqushlarning qanotida jim,
To'kiladi hayot kuyi – zar.

Erkinlikning g'amli ko'zlari,
Olovlanar g'imirlab – sovuq.
Ha, yerdagi qiyofasin u,
O'ziga-da ko'radi yovuq.

Intilamiz otash qo'shiq-la,
Olg'a deya ozodlik sari.
Tirilgaymiz halok bo'lsak-da,
Tanamizga jon ham kiradi.





QACHONKI O'LAYOTGANDA...

Otlar o'lar chog'i jim nafas olar,
O't-o'lanlar so'lsa, quriydi bedog'.
Quyosh jon berar payt so'nar-u tinar,
Odamlar-chi qo'shiq kuylar o'lar chog'.





BUGUN YANA BORAMAN...

Men boraman bugun ham yana,
Bozorga, ha, qaynoq hayotga.
Kurashmoqlik ko'hna an'ana,
Jo'r bo'lgancha otash bayotga!





YULDUZLARGA TO'LA TUN

Yulduzlarga to'lganida tun,
Taqdirlardan fol ochar beun.
Kitobmisan? Tarayapsan nur,
Istibdod-u erkmisan, yohu?
Qismatimdan uqding ne ma'no,
Yarim tunda hadsiz osmonda?





AFSONAVIY MAXLUQ

Afsonaviy maxluq cho‘qqida
Yashar, boqsang chulg‘aydi qo‘rqinch.
U ko‘zani olib qo‘liga
Nigohi-la axtarar ilinj.

Tebranadi mevadek behush,
Baroq qo‘llar shoxida betin.
Afsonaviy maxluq – badburush,
O‘z bo‘sh vaqtin ovutar beun.





YANA BIR BOR...

Yana bir bor, ha, yana bir bor,
Men siz uchun yorug' yulduzman.
Dengizchining holiga voy – xor,
Mahbubasin topolmay jisman.

Yulduzlar-chi

kuylaydi g'amgin,
Parchalangan toshlar-u tag'in
Suvostining bo'rlari haqda...
Bu qandaydir mavhum aqida.

Parchalangan qalbim ustidan
Toshlar mazax qilib kuladi.
Qanday mazax qilib ustimdan,
Kulganingiz kabi.





YILLAR, ODAMLAR...

Tez oqar suv yanglig' jo'shqinlik aro,
Mangu yugurishar odamlar, yillar,
Tabiatning rangin ko'zguna, o,
Izidan ergashar so'qmog'-u yo'llar.
Yulduzlar – yoyma to'r, biz baliqmiz bir,
Xudolar zulmatning sharpalaridir.





OQSHOM, SOYALAR...

Oqshom. Soyalar.
Behol lopillaydi to'ng ko'lankalar.
Oqshomni ichganча o'ttirardik biz,
Har ko'zda bug'uning yugurishi,

Nayzalar uchishi har bir nigohda
Aks etar.
Shafaqda jahonning g'azabi qaynab,
Havolangan chog'i do'kondan uchib
Chiqib-da bolakay qichqirdi:
«Issiq!»
O'ngga qaraganda chaproq, men esa
Chapga qaraganda ko'proq so'z edim.





* * *

Chuldirab-u ham sayrab,
Qushlar uchishdan tindi.
Tiroq barglar-la yayrab,
Uchishmadi, jim ko'ndi.

Patlarin to'zg'itib so'ng,
Uchdi bulut-la birga.
Sakradim bulutga men,
Tushunmadim bu sirga.





ODAMLAR, QACHONKI ULARNI SEVISHGANDA

Odamlar, qachonki ularni sevishganida,
Bir-biriga uzoq solishardi nazar.
Uzoq nafas olib chiqarishardi...
Yovvoyi otlarni qachonki sevishganida,
Ko'zlariga g'ashlik quyilib,
Suvlig'idan ko'pik ko'pirardi.
Quyoshni qachonki sevishganida,
Zamindan tunni mato bilan yopardi.
Xudolar qachonki ularni sevishganida,
Koinotning me'yorida titrashini o'rab olardi,
Xuddi Pushkin singari –
Volkanskiy oqsochining qaynoq sevgisi.

O'roz HAYDAR tarjimalari





VOQIF ETSAM EDI INSONIYATNI...

Voqif etsam edi insoniyatni,
Asrlar o'lchami – soat milidan.
Nahot, urush-janjal, yomon niyatni,
Yulib otib bo'lmas davr yo'lidan?
Shunday odamlar bor, tug'ilganidan,
Urushning taxtidan topadi amal.
Ingrayman uyquda bo'g'ilganimdan,
Tushda kelajakni ko'rib ehtimol.
Bilaman, sizlarni qobil bo'rilar,
Har uzilgan o'qdan qisilar mushtim.
Tepkini bosasiz, nishtar urilar.
Kimlarga? Bilmaysiz nahotki, do'stim?
Ummonning tubiga hukmdorlar-u
Bor kuch-la bosaman shum xayollarni.
Qilmishi oshkora amaldorlar-u
Almisoqdan qolgan bexayollarni.
O'shanda yer yuzin o'g'riboshisi,
Bir burda panglagan nonga zor bo'lar.
Har bir mamlakatning murvatboshisi,
Bizning buramaga intizor bo'lar.
Qachonki, soqoli selkillagan qiz,
Va'da qilgan toshni otsa tutasiz.
Shunda degaysizlar: «Biz bu inomni,
Necha asrlardan beri kutamiz.»
Insoniyat nega soating shunday,
Turtki bering soqov millar, o'yimga!

Hukmdorlar anglab alaloqibat,
Yetaklashib ketsa o'zin o'limga!
G'arib bo'lib qolar yer yuzi shunda,
Ona sayyoraning qarshisida lol.
Qo'shiqlar yangroqroq kuylanar kunda:
Men deyman, bu olam bir quticha bor.
Hisob-kitob shunday – gunohga botgan!
Uning eshigidan kirmoqlik uchun
O'shalar o'zlarin o'zlari otgan...





MEN BILMAYMAN, BU YER AYLANARMI, YO'Q

Men bilmayman, bu yer aylanarmi yo'q,
Ushbu so'z satrga sig'ishga bog'liq.
Men bilmayman otam, onam – ajdodim
Maymunlar zotidan bo'lgan ne chog'liq.
Na totli, nordonni istashin ko'nglim.
Shuni bilmamki, yonmoq istayman,
Quyoshni changallab titroq kaftimda.
Shuni istaymanki, yulduz nurlari
Mening ko'zlarimdan yonib o'psin-da.
Xuddi ohular kabi (buncha ham go'zaldir ohu ko'zlari!).
Shuni istaymanki, vujud titrog'im,
Dunyo titrog'iga aylanib ketsin...
Dildorim kokilin silagan chog'da,
Barcha tashvishlarim sovriolib bitsin.
Meni osmon, quyosh, nur cho'lg'ab olsin.
Ishonmoq istayman, toki ortimdan,
Meni eslatuvchi nimadir qolsin.





KO'P NARSA KERAKMAS!...

Ko'p narsa kerakmas!
Bir chimdim non,
Tomchi sutdan bo'lak.
Ana bulut, bepoyon osmon,
Tirikman, demak...





OZODLIK KELMOQDA OYOG'I YALANG...

Ozodlik kelmoqda oyog'i yalang,
Qalblarga dastalab gullarni sochib.
Biz odim tashlaymiz mag'rur u bilan,
Osmon-la suylashib, qalbimiz ochib.
Derazadan boqib, qizlar kuylasin,
Qadimiy marشلarni qo'shiqqa solib.
Oftob vafosini bir esga olib,
O'zin ozod qilgan xalqday uyg'onib.





YILLAR, ODAMLAR, ELLAR...

Yillar, odamlar, ellar,
Oqar suvday o'tib ketar abadiy.
Ona tabiatning oinasidan.
Yulduzlar ummondir, bizlarmiz baliq.
Faqat ko'rinmaydi ko'zlarga Xoliq.





KUYLANG MENGA...

Kuylang menga sofdil, bokira,
Ul sarvqomat qizlar haqida.
Ishonaman, safigizda bor
Yigitchalar shodmon, yelkador.





QAFASDAGI QUSH

Nimalar kuylaysan, qafasdagi qush?
Bandi bo'lib qolding qanday, faromush?
Yo, oshyoning yodga tushdimi bexos?
Ayrib qo'ydimi juftingdan qafas?
Yo, yodga tushdimi baxtiyor damlar,
Eslab ezildingmi yoki bir nafas?
Qurt-u qumursqalar tergan onlaring.
Kutganin chirqirab palaponlaring.
Charx urib falakda uchgan damlarni,
Qoyaga tush urib turganing mag'rur.
Yam-yashil o'rmon-u qir-o'tloqlarni.
Hadsiz kengliklarga bag'ishlab surur,
G'am-tashvish bilmasdan uchgan chog'larni?
Qunishib ketasan, eslagan sari...
Tuynukchadan xomush osmonga boqib.
Go'yo cho'milasan, cho'qilab donni,
Bosib suv ichasan, tutib xumori.
Unutgan bo'lasan go'yoki g'amni.
Va nogoh, kuylay boshlaysan qayta,
Nolalarga ko'mib butun olamni.





RADDIYA

Menga huzur bag'ishlar tamom,
Yulduzlarga boqmoq bir sira.
Kimlarningdir o'lim hukmiga,
Imzo chekib turgandan ko'ra.
Menga rohat, «U keldi» deya,
Bog'da sarrin gullar shipshisa.
Meni otmoq bo'lganni otib,
Turgan qo'lni ko'rgandan ko'ra.
Mana nega, nega, hech qachon,
Bo'lmagayman aslo hukmron!





NAVRO'Z BAYRAMI

Biz yana birinchi kunida insoniyatning!
Odamato izidan
Gurros va xursand
Bayramga shoshilar
Odamlar sho'xchan.
Zardushtlarning
Tillorang maysazor, o'rmonlarida!
Oyning birinchi kuni edi,
Uxlab yotgan tillar o'yg'onganida...
Bunda Oy – vaqtning nomi.
Yarim tunda sokin nurin taratib,
Olamni aylaydi ul Oy charog'on.
Ikki harf xuddi ikki oy,
Ikkita kabutar talashar go'yo,
Tilsimot osmonning derazasida.
Qip-qizil shoxidan aloe bargi
Go'yoki gardishday yumalar ildam.
Hech gapmas, zalvorli mehnat zahmati,
Shuhratli odimlar poyida bu dam.
Karna-yu surnaylar g'ata-g'atidan,
G'ayratga minadi har qanday odam.
Ko'zlarida quvonch shahar ahlining,
Zarhal bitiklarda izhor rohati.
Gohida unumli, gohi unumsiz,
Betashvish yuksalar inson mehnati.
Chalg'uchi puflaydi tinmay burg'uni.
Boramiz sho'x-shodon ravon yo'llarda,
Sirmalab aloe bargin qo'llarda.

Olqishlar yo'l bo'yi mard bayroqdorlar,
Holdan toygunicha sarafroz aytib!
Yo'qolsin, butunlay buyruqbardorlar!
Bugun olamaro mehnat bayrami.
Go'yo nariroqda, cherkovda pusib
Rashk bilan boqadi rus ozodligi.
Qop-qora sarpoda hur, qatiyatli,
Mungli-mungli boqar musulima qizlar.
Kelmoqda xaloskor mard, oriyatli.
Qardosh, o'q-yoylari, tayyor va abjir,
Bir sakrab, tulporning beliga sapchir.
Ortidan shovvozlar qiyqirib yurtar.
Bug'doyrang yuzlarda telbavor g'ayrat,
Ko'ksida jo'sh urar mardona qudrat.
Bo'ysunmas tulporlar pishqirar horg'in.
Tog'lik shunqorlarning ko'zlarida o't,
Tog'-u tosh, o'rmonlar butazor oshib,
O'tib borayapti shamolday shoshib.
O'zin yerga otar, goh ot beliga ,
Sakrab minib olar yovqur chavandoz.
Ana shunday tog'lik bug'doyrang jangchi.
Daraxtlar oralab, yo'ldoshiga xos,
Ortidan qurdoshlar borar hayqirib,
Qurol-u balalay jarangiga mos...





HAYOT

Quritiba turibsan olcharang soching
Qilichday tovlangan o'ramlarini.
Unda-chi, jallodlar qahqahasidan
O'tkazar ustidan qolganlarini.
Xuddiki, qorako'z bashoratchiday,
Sehr-la so'z demay shaydo bo'lasan.
Ba'zida misoli suv parisiday,
Yuhoning bug'zida paydo bo'lasan.
So'yo'loqi tishlarin havoda ochib,
Yuho-chi tosh qotgan, joni uzilib.
Bo'ronlar tanirdi tirikligida,
Endi u parcha muz, yotar cho'zilib.
Sen bundan o'tasan sokin shamolday,
Go'yo keskir pichoq, gulxan oralab.
Bunda-chi, tinmaydi bir zum o'qbo'ron –
Bayroqdor yiqildi, ko'ksin poralab.
Bunda sen tezlatding vaqting shitobin,
Shoshilib chiqarar jallod farmonni.
Bunda-chi, qip-qizil qoniga botib.
Yotibdi toshbaqa – otuv qurboni.
Bu yerda – ufqda qizarib g'ozlar,
Silkitganday bo'lar tumtoq qanotlar
U yerda, qaydadir eski qirolning,
Imzosin bag'irlab yotar qumloqlar.
Baytal yo'rg'alatar o'z maromida,
Bu yo'llar bunchalar chuvashgan, yo rab.
So'nggi bor qo'lingni sirmab qolasan,
«Kechir» degan kabi poytaxtga qarab.



ODAM SEVIB QOLSA...

Odam sevib qolsa, xayol parishon,
Chuqur xo'rsinar-da, kelar o'ziga.
Yirtqich muhabbatga bo'lsa muhtalo,
Quyilar bor dardi mungli ko'ziga,
Belgisin beradi tez mahlubiga.
Oftob izhor qilar muhabbatini
Tunning pardasini beozor yopib.
Do'stning diydoriga yetgani kabi.
Xudolar, agarki, sevsalar ular,
Ona sayyoraning baxti kuladi.
Xuddi Pushkin yonib otash qalbini,
Cho'ri Valkon qizga ochgani kabi...





CHIGIRTKA

Qanotlari tillorang
Juda nozik, yaltiroq,
Qorinchasin ustida,
Qanotlari pirpiroq.
O't-o'lanlar juda mo'l
«Viz, viz, viz, viz, viz, viz!» viz-vizoq kuylarida,
Oh oqqushjon,
Oppoq qush!
Sohilning bo'ylarida.





KULGILI QARG'ISH

O, kuling, kulavering kulguvchilar!
O, kulavering, kulayotgan kulgichlar!
Kulayotgan bu kulgidan kuladi,
O, kula, kula kuladi.
O, bema'ni kulgi, kulgili!
O, kula, kula, beadabning kulganidan kul!
O, kulgindining ustidan kula, kula kul!
Kulguvichlar, kulguvichlar!
Kulibol, kulaqol kulaverib kul!
O, kuling, kulavering kulguvchilar!
O, kulavering, kulayotgan kulgichlar!





YANA, YANA...

Yana, yana,
aytaman takror
men siz uchun yulduzman porloq.
Suzish burchagini to'g'ri olmagan
dengizchining holidir chatoq.
Ha, yulduzlar:
toshga uradi,
suv osti oqimida.
Sizning ham holingiz bo'lmas yaxshiroq,
agar yuragimga
to'g'ri olmasangiz burchakni:
toshlarga borib urilasiz,
toshlar holingizdan kular sharqirab
xuddi boshimda
bir paytlar kulganingiz kabi tirqirab.





BIR PAYTLAR...

Bir paytlar Veriylar davrida
Vermirlar podasin yoyganda,
Vremish-la chaqmoqtosh o'ynadim.
Vermishga toshchani irg'itdim,
Vermishcha toshchasin irg'itdi.
Vaqt esa qanotin yoydi-da,
Pir etib o'zini berkitdi.





MEN G'OLIBMAN...

Men g'olibman, yangrar bu sado
Endi xalq olqishlar meni begumon.
Nigohlarda porlaydi ishonch.
Mo'jizaning doyasi – imon.
Qayerda?
Ko'p cho'zmasdan javob beraman:
Hu qirlardan baland turaman.
Odamlar quraverar, quraverar
Tomga yetganicha qurar tomsiz uy.





«...DAN»

Xaltadan
To'kilib ketdi narsalar.
Dunyo xuddi shunday, menimcha
Unda
nima u yaltirayotgan,
Tabassummi, odam labida
Ana-mana to'kilayotgan.





HAMMAGA OZODLIK...

Ozodlik, deganlar to'planing unda,
Oqqush qanotida odamlar shodon,
Mehnat bayrog'ini keltirar bunda.
Ozodlik yolqini ko'zlarda lov-lov
Ko'ring, Yer yuzining qiyofasini
Gulxan ham sovuqroq tenglaganingda!
Yangilar bitarlar o'zin ochligin...
Boramiz gurulloq qo'shiqlar bilan
Hamma olg'a bossin ozodlik uchun!
O'lar bo'lsak agar ketarmiz shahid!
Qayta tirilarmiz mahshar chog'ida.
Yo'ldamiz ko'zlarda hayrat yolqini,
Shaxdam qadamlarni qo'yamiz birdam,
Agar bandi bo'lsa hatto Iloh ham,
Unga ham ozodlik beramiz bu dam!





TUN, BEPOYON OSMON...

Yulduzlari to'la munajjim osmon
Taqdirlar qanaqa, qanday yangilik?
Hammasini qamrab oldingmi kitob?
Ozodliknimi yo, bo'yinturuqni
Qay birin o'qiyin, aylagin xitob.
Yulduzlarga to'la bepoyon osmon?





RAQAMLAR

Boqsam ko'rinasiz ko'zga raqamlar,
Yirtqich terisini yopib yurganday.
Tayanib, juldiri chiqqan emanga,
Biltanglab, chorlaysiz kelgin, deganday.
Asrni bir xandon bilan tenglaysiz,
Tog'lar ham bir o'yin, sizlarga qo'ysam.
Vo ajab, ko'zlarim qinidan chiqqay,
Bo'linuvchi bo'lib, birga bo'linsam.





TULPORLAR PISHQIRAR O'LAR CHOG'IDA...

To'lporlar pishqirar o'lar chog'ida,
Maysalar qovjirar paymon to'lganda.
Quyosh ham oxiri so'nib bitadi,
Qo'shiqlar aytilar odam o'lganda...





FILLAR TISHLARINI TOSHLARGA URIB...

Musavvur olamni qiladi tasvir:
Fillar tishlarini toshlarga urib,
Pardozlar oqartib marvarid kabi.
Bug'ular shoxlarin shoxlarga burab,
Go'yo sitamlarni yengganday bo'lib
Istaydi yashashni qo'shaloq qarib.
Daryolar quyilar dengizga xuddi:
Bir qo'llab bo'yniga chang solgan kabi.

O'ktam MIRZAYOR tarjimalari





YILLAR, ODAMLAR VA ELLAR

Yillar, odamlar va ellar
O'tib ketar bir yo'la
Suv oqimi kabi.

Moslashuvchan tabiat ko'zgisida
Yulduzlar osma to'r, biz esa baliqlar,
Iloh – qorong'ilik, ilohiy sharpalar!





OSIYO

Mudom cho'ri qiz,
Shohlar vatanidan ko'ksi balandroq.
Qiyg'och ko'zlarida mangu bir og'riq,
Quloqlar o'rnida davlat muhri go'yoki sirg'a.
Ba'zan sen homila ko'rmagan Qiz, qo'lida qilich,
Ba'zida enaga, goh doya Kampir isyonkor,
O'sha kitobning betlarin varaqlaysan sen.
«Imzo» – dengizlar qo'lining zalvorli bosimi izi.

Tunlari odamlar siyoh bilan qiladi jilva.
E'tirozning g'azabkor belgisi
Shohlarning tun bo'yi otilishi edi.
«Vergul» bo'lib xizmat qildi jangchilar g'alabasi,
Dala bo'lib quturishdek qo'rqinch bilmas «Ko'p nuqtalar».
Xalq g'azabkor ko'rinur,
Yuz yillar chatnashi «Qavs» kabi mo'tabar.





* * *

Maynavozning xira kuz tunukasin
Teraklar shoxlari savalagan joyda,
Osmonning zalvori yitib bir zumga,
Sizni tabassum qilishga undagan joyda,
G'alla yanchilayotgan xirmon ostida
Tekis yer guvullagan joyda,
Kirimni hisoblash uchun Mordvinov
Ishonchli hisobdonlar va'zini tinglab,
Afsus, sevgidan baxtsiz raqibni,
Omadsiz mehmon tovonlari bilan tepkilagan joyda,
Ularni ham, bularni ham
Oltinugurt yorug'ligi bekinmachog'i
Qutqazgan joyda,
Hayot ibtidosi Yanus ma'budi himoyasi ostida,
Kurkalar, tovuqlar, g'ozlar yashayotgan joyda,
Siz tabiat – xolangiz g'amxo'rliги ostida
Shu yerda sokin nigoh-la gullamoqdasiz!





OCHLIK

Bulanlar va Quyonlar o'rmon bo'ylab yurishar sakrab,
Olis-olislarga, chekka-chekkalarga panalab, nechuk?
Odamlar yeb qo'yishdi Osina po'stlog'in, poyasin,
Qarag'aylarning yashil novdalarin ham.
Xotinlar va bolalar o'rmonaro izg'ishar,
Qarag'ayning tepa barglarin terishar,
Karam sho'rva uchun,
Ayron uchun,
Okroshka uchun,
Qarag'aylar uchi,
Kumushrang mohlar go'yo po'panaklarni,
O'rmon yemishi.
Bolalar,
O'rmon josuslari
Qoyalardagi daraxtzorlar bo'ylab daydisha.
Oq chuvalchaglarni qovurishar gulxanda.
Quyon karami, xo'ppa semiz qurtlarni
Yoxud o'rmon o'rgimchaklari –
Yong'oqdan totliroq ekan.
Ko'rsichqonlarni, ovlashar kulrang
kaltakesaklarni,
Vishillagan ilonlarni kamonda otishar.
Sho'radan shirin kulcha yopishar.
Ochlikdan yugurishar parvonalar izidan.
Bir qopini yig'dilar.
Bugun kapalak sho'rva bo'ladi,
Onalari tushiradi paqqos.
O'rmon bo'ylab jozib sakrashlar ila
Dikong-dikong yugurayotgan Quyonga
Go'yo tushdagidek,

Yorug' olam ko'rinishi, tushlaridagi afsunlardek
Katta-katta ochiq ko'zlar ila
Qarashar hayrat-la,
Ochlikdan ilohiy avliyolarday
Ishonmaslar haqiqatga hech.
Biroq u sho'x sharpadek qoladi qochib
Quloq uchi qorayib.
Ortidan uchadi kamon o'qlari.
Ammo kech,
To'yimli tushlik qochib ketdi-ya!
Bolalar seyr-la so'rrayib turishar:
«Qara-chi, kapalak, anitdan o'tdi uchib!
Yugur, tutaqol! Huv, anuv yerda ko'm-ko'k!»
O'rmonda zimiston.
Olislardan yugurib keldi Bo'ri.
O'tgan yili qo'zichoqni yamlagan joyda
Izg'ib yurdi uzoq.
Chor atrofni hidlab, iskab bo'y oldi,
Biroq hech vaqo qolmagan
Chumolilar dastidan
Qurigan tuyoqdan o'zgasi.
Xafa bo'ldi Bo'ri.
Qapishgan qovurg'alarini qisganicha
Ketdi o'rmon ortiga u.
Qizil qoshli Qurlar,
Oq sochli Qurqurlar
Qor tagida uxlab yotguvchi
Og'ir panjalaring ila bossang gar,
Qor zarralari ila ko'milsang...
Tulkivoy, momiq, olovrang,
Yotib oldi to'nka tepasida.
Bir burda bo'lib oldi go'yo halqoblar uzra.
Kelajak haqida u surdi xayol.
Balki it bo'volib,
Odamlarga xizmat qilsammikan!
To'r tashlab qo'yilgan ancha –

Istaganingcha yetib ol!
Yo'q, xatarli yumush!
Eh, Malla tulkini
Itlarni yutgandek yeb tashlaydilar!
Hurmay qo'ydi qishloqda itlar...
Tulki yelkandek baland ko'tarib quyrug'in
Yumshoq panjalari ila cho'mila boshladi,
Vaysagancha Olmaxon dedi:
«Qani, qayda qoldi, yong'oqlarim? Cho'chqa yong'oqlarim qani?
Yamlab yutdi odamlar».
Sokin, tiniq qo'nmoqda oqshom,
Qayin bilan Jo'ka shivirlab sekin
Muchchilashdi, bir-birini achomlab.
Balki nonushtaga kallaklashar ularni ertaga!





* * *

Sovuq muzli irmoqlardan,
Hatlab yurar edim darg'azab mulla singari,
Qay joy yaxshi bo'lsa.
Qirq chaqirim nariga «Cheka» meni chaqirdi so'roqqa.
Uchradi yo'limda eshaklar.
Otliq meni chorladi o'ziga.
Besh chaqirim yo'l yurdik.
«E!» – otliq ushatar oltin misoli non.
Ho'l pishlog'-u moviy rang sharob mo'yqalamin uzatdi:
Ko'k ilonlar tuxumlarin oldim inidan,
Faqat onam emas yonimda.
Yeldirdik otlarni, yo'l-yo'lakay

Osmon in'omlarin qilganча tanovul.
Otlar biqini turtinar, egar ayllari ila.
Tabassum jilvasi o'rtog'im lablarida yana:
«Yesang-chi, og'ayni!» – yo'l-yo'lakay
Cho'zilar mo'yqalam tutgan qo'lga dengiz ko'zlari.
Ikkimiz ot yeldirib borardik, Tog'lar poyidagi tergovga.
Buqalarning quruq suti og'zimda qisirlar.
Meshlardagi toza sharob, oltinrang un ham mo'l,
Naq yonimda qalin o'rmon,
Qadimiy Daraxtlar boshdan oyoq itoatsiz po'panakka o'ralgan.
To'ng'iz o'qday otilib o'rmonni teshib o'tsin, e!
Gulxanlardan qolgan qora dog'lar,
Oqarib ko'rinar kul, suyaklar uyumi.
Ming qo'yli suruv yopirilib kelar To'fon misoli.
Cho'pon boshchiligida qarshimizdan chiqib kelmoqda
Barhayot dengiz qora dolg'alari misoli.

Qora kamar darada birdan zimiston boshlanar,
Qorayib ko'rinar daryo ham yonboshda.
Ming-minglab toshlar uzra sirpanar yashil kashta ham.
Shom tushdi birdan, kamdan kam tomchilar to'ri
Chirmab oldi darhol bizlarni.
O'sha o'r, badqovoq dara,
O'zga bir Kitobxon tosh kitobiga evrildi tuyqus.
O'zga olamlarning ko'zlari hijjalagulik.
Ovulda sochilib yotgan kulbalar
Tushunarsiz alifboning harflari go'yo.
Osmonga Qizil tosh o'rlab boradir
Yarim chaqirim qad rostlagan kimdir o'qiyotgan kitob misoli.
Qaydadir, shundoq yonimda sharpadek kezsa ham,
Kitobxonning o'zini Osmonda ko'rmadim lekin.
Balki Qabila sardori sallasidir boshida.
Xizmat burchin ado etganча Daryo shovullar pastda.
Ko'kka bo'y cho'zishar daraxtlar yakka
Tosh qotgan yangiliklar o'qday satrlari bo'lib osilib qolgandek sekin.
Bir kundan keyin Cheka chaqirdi keraksiz tergovga.
Bakuga poyezdda jo'nab ketdim men.
Tirmashib men chiqqan qoyalar,
Ovloqlarda hayqirar daryo
Tasodifiy bo'shliq qanorlarida,
Olaqorong'u osmonga xizmat joylarda
Ibodatxonalar giyohlari,
Amallar va izdihomni tanib qolardim.
Yovvoyi uzum butog'in uzgandim shunda.
Qo'llarim butunlay tilindi, timaldi, qonadi.
Kimning qichqirig'i?
Nozik va sirli muhabbat tavsifimikan yo?
Tosh gazetalar uzra qo'llarning barmoqlariday
Oqarib ko'rinar bulutlar,
Nechanchidir yuz yilliklar sari suzganda.
Men ham jo'nab ketdim.

O'rlaganim ovloq jarliklarda qup-quruq o'zanning qanorlarida,
Giyohlar ibodatxonasi berkinib olgan.

Bog'dagi qari nok novdalarida Malaklar chechagi,
Yam-yashil – Omela o'z shahrini bunyod aylamish.
Ulkan daraxt boshqa daraxtlar qadimiy qonin azoblar.
Gullar qirmizi.

Alvido, barcha-barchangizga!

Alvido, kecha oqshom, Tun malaklari, Oqboosh cho'ponlar,
Qishloqqa haydab kelishardi Oltin mo'yna suruvlarini.
Sigirlar bo'kirib chopar, sut isi yuksalar daraxtdek ko'kka,
Bulutlarga yetib borgudek.

Alvido, qora kipriklar panjarasiga

Yashirinib olgan Buqalarning qora-moviy ko'zlari!

Onalik yog'dulari odamlar va buzoqlarga sharros yog'ilar.

Alvido, tun zulmati,

Poda va sigirlar

Bitta qora bulut bo'lib ko'ringan damlar.

Har oqshom qo'llarim bilan

O'tkir shoxlariga nuqirdim nuqul,

Boshlarida ko'za,

G'amgin ko'zli ayollar, xonimlar

Qadami ohista, vazmin, ohista!





ERKINLIK

Ozodlik ortidan barcha – o`shaqqa!
Eh, odamlar oqqush qanoti-la,
Mehnat bayrog`ini olib o`tarlar,
Ozodlik nigohi otashi kuydirar,
Alanga, taqqoslaganda – izg`irin,
Mayli, Zaminda izlangan timsol!
Yangilarini yozgay bir kuni Ochlik,
O`tli qo`shiq'larga boramiz birga,
Qani erk, ozodlik sari olg`a!
Gar o`lsak, tirilgaymiz tag`in albat!
Barcha so`ngra jonlanar,
Ajib bir yo`l tomon xushhol
Odim otamiz dadil.
Gar ilohlar bo`lsa zanjirband,
Erk beramiz ularga ham sha`n: Ozodsan, iloh!





* * *

Oqshom.
Rutubat ko'lankazori.
Pichan g'arami.
Erinchoqlik. Rohat.
O'ltirardik oqshomni simirib.
Har bir ko'zda Bug'u yugurigi,
Har nigohda nayza uchishi, nihoyat.
Ufqda kun botar mahal,
Kahkashon g'azabi qiynaganda,
Do'kondan otilib chiqdi bir o'g'lon.
«Jazirama» hayqirig'i bo'lganda yo'ldosh,
Men uning so'zidan ham ancha so'roqda edim,
O'ngiga sal yaqinroq, turgandim qo'ldosh.





* * *

Zamon girdobida qamishlar
Ko'lning sohilida shovullar!
Vaqt esa tosh qotgandek
Ular tosh bo'lib lovullar!

Ko'l qirg'oqlari so'lim-so'limdir,
Vaqtinchalik hatto qamishzor.
Ko'l bo'yida kayvoniy ohang,
Ilohiy shovqinzor, ilohiy bozor!.





ALFYOROVO

Yo'q emasdi dovrugli qo'mondonlar ham,
O'layotib ular «baxtiyorman» degan.
Ko'hna novgorodlik avlodi hardam,
Mag'rur zotlar ichra yonib kul bo'lgan.

Oppoq, yoldor paxmoq tulpor ustida,
U Polshada qirolni yengdi, eh, bular!
G'alabalar-chi, makkora, ayyor,
Eski seviklilar ustidan kular!

O'tirardi qari jo'ka tagida u,
G'alaba qozongan Izmail qal'asida, g'olib.
Qog'ozlar uyumi buyruqlari uzra engashgan
O'layotib shivirlar: «Biz yengdik! O'zgalar qolib!»

Tog'am ot choptirgan jar tepasida,
O. Gunibni ruslar olishganida, ha.
Avarlar qilichi yaraladi, qon silqidi
Daryo, halok bo'ldi dangal o'shanda.

Ba'zida devonalar, ba'zida tim qora
Taqalarning gulduros jarangi ostida
Olib ketardilar chavandozlarni
Dunay qirg'oqlari bo'ylab ohista.

Otxonalar tuyoqlarning odimlariga
To'ladir bobolar yurti, rus saltanati.
Ekilgandi zafar yurishlariga
Yor-u do'stlari ila sharaf ham oti.

U Sharqda xizmat qilgandi sharros,
Egilmay halokatli o'qdan, mashhur.
O'z yuragiga qo'lin qo'ygandi
O'layotib dushmanga ham dedi: «Tashakkur!»

Endi bo'lsa-chi uning mulklari,
Saroylari va xutorlari yonmoqda,
Qo'rg'on imoratlari, o, bari-bari,
Yondilar, suvsagan olov qonmoqda.

Biroq otalar-chi, odatiga sodiq,
Bobolarning o'gitlariga soqchilarday,
Yotoqlar bo'ylab yurar bezovta
Shopdek mo'yablarni uchin g'ijimlay.

Bobolar burjiga kirar uning o'zi ham!
Poytaxtning talangan oliy zotlari
Qosh, qovoqlarin uyib, chekib g'am
Boqar ko'hna rasmlardan. Kimdir otlari?

Tursun ALI tarjimalari





KUZ

Bu kuz – quyonchanning terisidek mayin,
Nigohlaring olisga tikilgan sayin,
Vahmkor kuz quyonchani qo‘rqitar tayin,
Oltinrang nazdimda xuddi sehrigar ayyor,
Kuz esa zar libosda tovlanar takror,
Bandidan yulingan barglar topmish zavol
Arslonyol barglar umri topmishdir zavol
Xazonrang yaproqlarni supirar shamol,
Ko‘zlar chalg‘ir: bu kuzning g‘amgin mungimi,
Yoxud sariq tus quyonchanning mungimi?!





IZG'IRIN

Qaroqchidek izg'ir izg'irin shamol,
Oltin dalalarni qildi yer parchin.
Tun-u kun o'zgarmas ayanchli ahvol,
Hammaga bir xilda ko'rsatar kuchin.

NIGOH

Ko'zingning qorachig'i
Qalbni isitar – cho'g'i.





OQSHOM

Oqshom. Qosh qorayib cho'ka boshlar tun...
Dahliz qulay. Yalqov – tanballar uchun.
O'tiribmiz oqshom sarxush-u sarmast,
Ko'zlarda ohuday o'ynoqlar havas.
O'tkir nigohimiz bamisli nayza,
Ichdagi alanga qani pasaysa.
Yosh bola do'kondan chiqdi otilib,
«Issiq!» – deydi, mezbon tili tutilib.
To'g'riga o'ngga! – Siz quloq soling gapga
O'ngga yurgan ma'qul, ketgandan chapga...





BURJLAR

Tun, osmon to'la turkum yulduzlar,
Turfa taqdirlar, qay birin so'zlar.
Erkmi yoxud zulm jaranglar xitob?
Bitilganmi, bari sahfangda kitob?
Noayon menga qismatiy ravo,
Bag'ri burjlarga to'la keng samo...





NAY

Nay chalaman, bu qalbimning royishi,
Dunyoning istagi uning xohishi,
Yulduzlar menga qilishar itoat,
Kafdek silliq emas, aslo bu hayot.
Xalq maqoli esimga tushar so‘zsiz:
«Men qilaman o‘ttiz, – U qilar to‘qqiz!»





OTXONA, KO'K OT...

Otxonadan to'liq ko'rinadi ko'k ot,
Sharros quyay yomg'ir. Qo'y, shudgorni to'xtat.
Ayonki, ish ertaga qiladi davom,
Otxonada yemin yeb, dam olsin ot ham.





DILBAR QIZLAR HAQDA...

Menga dilbar qizlar haqda qo'shiq ayt,
Rash ko'tida yonsin giloslab qizlar,
Bahodir yigitlar haqda bo'lsin bayt,
Ishonaman, ular orangizda bor.





MANZARA

Qushlar uchishini bas qilgan zahot,
Tindi chug'ur-chug'ur, shitirlashlar ham.
Borliq uzra jimlik, so'ngandek hayot,
Yaproqlar qilt etmay, tosh qotdi bir dam.
Bu qanday sir-tilsim o'sib chiqdi par
Sur bulut ustida yozdim keng qanot.
Asoslab berolmas ilmimiz nochor,
Bulutlararo men qildim sayohat.





VAQT TOSH

Vaqt tosh vaqtning dog'ida
Turar ko'l qirg'og'ida,
Tosh vaqt o'zi qayerda?
Vaqt tosh yotar tuproqda.
Tosh qotib ko'l bo'yida
Turibdi vaqtlar, toshlar,
Kelar ko'l qirg'og'idan
Sir – ilohiy tovushlar.





QOPDAN SOCHILDI

Qopdan
Yerga sochildi bir to'p buyum.
O'zimcha o'yladim,
Bu dunyo –
Faqat tabassum,
Iliq horg'inlik
Osilar, ro'yo –
Kiprikka bir zum.





CHIGIRTKA

Chigirtka
Parda qanotlari nozik
Ingichka, tomirlar xuddi zarli xat,
Tinimsiz sakrar u qidirar oziq,
Bilar qirg'oq bo'yida mo'l – serob o't.
«Pip-pip, pip!» – uchar betartib,
Beqo'nim, takror-takror,
Oh, oqqush uni kuzatib
Yonib qulay fursatni poylar.





BOBEOBI

Bobeobining kuylagan labi,
Veeomining nigohi kuylagan,
Pieeoni qoqdi ko'z-qoshini
Liceey kuylagan rang-ro'yini.
Gzi-gzi-gzeo qo'l-oyoqdagi zanjirni.
Shu tariqa bo'ydoqlar qandaydir
Sezganlar botinda mas'uliyat,
Bundan xoli yashagan yuz faqat.





RAQAMLAR

Men sinchiklab tikilaman sizga, ey raqamlar,
Va men sizni hayvonlar terisini kiyingan holda ko'raman,
Qo'llaringizni singan so'yillarga tirab turgan holatda.
Siz qo'shaloq ilon timsolida yagona birlikni hadya etasiz
Olam asosi va hayot tarozisi tengligiga aniq mezonisiz,
Siz asrlarga tishlar qanchalik tez botishiga imkon berasiz.
Endi men tushundim noyob ashyolarni ko'z qorachig'idek asrashni
Bilib o'rgandim ularga mehr-muhabbat bilan qarashni.





YULDUZLARARO YO'L

Yulduzlararo yo'l olis va sovuq
Yetkazmaydi unga quruq ibodat
Jasorat qanotim qudratli, buyuk
Yurak qonim bilan yetaman faqat.





MEN UCHUN

Ko'nglim tusamaydi hech nima!..
Menga yetadi bir burda non
Va bo'lsa yana bir piyola sut.
Bu men uchun musaffo osmon,
Hamda qut-barakali bulut!





TAKROR-TAKROR AYTAMAN

Men takror-takror aytaveraman,
Siz uchun yo'l ko'rsatuvchi
Yagona Yulduz.
Dengizchi yo'qotsa yo'lini
Nochor holga tushgaydir,
Go'yo og'ish burchagi – ko'ngli
Xavotirda uvishgaydir.
Va yulduzlari so'nar:
Oh, ular toshlarga
Urilib bo'lari bo'lar,
O'zini suv osti shohi sanaganlar.
Sizning ham holingizga
Yig'lar so'zsiz maymunlar.
Yuragingiz men uchun noto'g'ri burchak:
Arazlamang, siz urilib toshlarga.
Mayli, mayna qilsin toshlar
Kulib ustingizdan,
Xuddi siz kulgandek yayrab
Mening ustimdan.





FILLAR JANGI

Ayovsiz og'iz solar fillar bir-biriga,
Tishlari o'xshab ketar misoli oq toshga
Qarab qoyil qoldim rassomning tasviriga.
Burama shox bug'ular ham shunday shoxlashar,
Buning qadim ildizlari tutashga o'xshar
Birga yuksalish va o'zaro shubhalanish.
Daryo dengizga quyilishda bo'lar shu hol,
Tili va yuragi bo'lak odamlar misol...





KUZ

Qarg'alar cherkov tepasiga qo'nib,
Kuzga olqish aytar bari quvonib.
Qatorlashib turar chetan devorlar,
Yelvizak shamollar nurday yugurar.
Havoda suzadi ingroq tovushlar,
O'yilasang, negadir yurak uvishar.
Daryodan tortilgan ariqcha oqar,
Yonidagi bo'm-bo'sh yo'lni bosgan qor!
Uchta qiz o'zaro tinmay tortishar,
Yigitlar ustida san-manga borar!
Ko'ngillar parvozi bamisli kaptar,
Axir yosh bo'lgan-chun xayol beqaror.
Borliqqa o'z soyasini tashlar shom,
O'rmalarmi, men tomonga chetan tom.
Yo'q!





OLOV BOG‘

Borliq oltin-zar libosda –
Olovbog‘! Olovbog‘!
Mening orzu-o‘ylarim
Shunday sen haqda,
Sharaf-shon kergaydir
Doimo quchoq.
Bizning diydorlashuv
Haqiqiy bahor,
Yuribman, hayajonda istab uchrashuv.
Olovbog‘! Olovbog‘!
Ko‘rmoqchiman zarrang olovni
Shay turibman chog‘lab o‘zimni,
Ranglar tomon –
Kamalak qamashtirib ko‘zimni
Zar olovda birdan yonib
Ketmay qolay deb omon...

Ochil TOHIR tarjimalari





QAFASDAGI QUSH

Ne haqda kuylaysan, qafasdagi qush
Unga qanday tushib qolganingnimi?
Yo qanday in qurib, so'ng bo'lib bandi,
O'z juftingdan judo bo'lganingnimi?

Yo qadrdon inda, sen ozod yashab,
O'tib ketgan baxtli onlaringnimi?
Yoki chivin tutib yetganda yayrab,
Chuvullagan palaponlaringnimi?

Yoki o'rmonlarda ozod yurganing,
Baland cho'qqilarga qo'nib turganing,
Yo aziz yam-yashil maysazorlar-u
Cheksiz dalalarda davring surganing.

Endi sen sho'rlikka judayam qiyin,
Torgina qafasda bandi o'tirmoq.
Faqat darichadan tushgan quyoshning
Saxiy nurlariga intiq cho'milmoq.

Quyosh nurlarida cho'milgaydiansan,
Ajib qo'shiqlaring kuylagaydiansan.
O'tgan o'shal baxtli damlaring eslab,
G'am-u tashvishlaring unutgaydiansan.

Zerikkanda pistalar chaqib,
Yutoqqancha suv ichgaydiansan.



OQSHOM

Oqshom. Soya.
Pichan va mudroq,
O'ltiramiz tun bo'yi sarmast.
Har bir ko'zda – bir kiyik qochqoq,
Har nigohda – nayzaga havas.
Kunbotarda o't yoqar oftob,
Bola chiqar do'kondan shoshib,
«Issiq!» – deya etgancha xitob.
Tezda o'ng kelar, Haq yo'ldan ko'ra,
Siz mendan so'lnimas,
Haq so'zni so'rang!





CHIGIRTKA

Oltin yozuv qanotlari-la,
Juda nozik-nafis yashagan
Chigirtka oyog'in qorniga qo'ydi,
Qirg'oq to'la o't va oyatga,
«Pin, pin, pin» – qilib shitirlatdi u
O, oqqushim!
Olamni yorit!





SEVIB QOLGAN CHOG'DA INSONLAR

Sevib qolgan chog'da insonlar,
Uzoq termularlar va
oh, tortarlar.

Sevib qolgan chog'da hayvonlar,
Ko'zlari olayib,
ko'pik socharlar.

Xo'sh, sevib qolsa-chi
gar saxiy Quyosh,
Zamin matosi-la tunni yopgaylar
Do'stga, tantanavor
raqs tushgandek,
Sevimli Xudolar
tomon chopgaylar.

Borliqni hayajon
chulg'aydi shunday
Volkonskiy xizmatkorin
yonib sevgan Pushkinday.





KULGU AFSUNI

O, kuling, kulguchilar,
Qah-qah oting, kulguchilar!
Nedan kularlar kulgi-la,
Loyiq erur u kulgiga.
O, kuling qah-qah otib,
Kulganlar ustidan kuling!
O, kuling, kulguchilar,
Beadab kulgudan kuling.
O, kuling, kulguchilar,
Qah-qah oting, kulguchilar!





KETAYOTIB QO'SHIQ AYTDI U

Ketayotib ajib qo'shiq aytdi u,
Alamli, jangovar, baland ovozda.
Boshlarimiz uzra uchib o'tdi u,
Gulqanot ko'kqarg'a misol parvozda:

«Men yengilman, raqs tusharman,
Naq kapalak qanotlidirman.
So'rasalar: ushbu dunyoda
Borasan deb, qay sirli yo'ldan?

Javob bergum: men parvonadek,
Sham ahliga xizmat qilurman.
Men to'daning quvnoq dohiysin
Tiniq tabassumi bo'lurman.

O'tgum oppoq to'siqlardan men,
Oq sharaflar, oppoq malhamlar,
O, xoplasam ahmoq bo'ladi,
Dunyoda bor daho odamlar.

Suyuklidir menga parvona,
Dalalar, maysazor va gullar.
Oqlik ichra tushib raqsga,
Dahshatliman tabassumim-la,

Yozda bog'da – ninachimani men,
Qishda – slavyanlar singlisi.
Chanalarga mo'ynani to'shab,
Qor – bo'ronlar ichra uchaman.

Hey! – deb qichqirgancha oyog'im,
Ayiqlik terisiga burkab quchaman».



OTLAR O‘LAYOTIB – NAFAS OLISHAR

Otlar o‘layotib – nafas olishar,
O‘tlar so‘layotib qurib qolishar.
Quyosh botayotib – shamdek so‘ngaydir,
Odam o‘layotib – qo‘shiq kuylaydir.





TERAKLAR PO'STLOG'I TESHILGAN JOYDA

Teraklar po'stlog'i teshilgan joyda,
Zerikarli qiziqchi misoli kuzda,
Osmon og'irligi tark etgan kezda,
Sizni kulmoqlikka etgancha majbur,
Mo'l hosil yig'ilgan ombor ostida
Guvullaydi yumshoq, tekislangan yer.
Mordvinov foydani hisoblash uchun,
Ishonchli hisobchi yollagan bu kun.
Kelgan har bir mehmon tovonni bilan
Sho'rlik raqiblarin o'tgaylar tepib
Qaydadir kim kimni avaylab-asrar,
Sernik nuridan.
Qaydadir Yanusning homiyligida,
Yashar indeyka-yu, tovuqlar, g'ozlar
Xola – tabiatning mehri bilan siz,
Sokin ko'zlim, bunda
gullab-yashnaysiz.





«MEN BILMAYMAN,
AYLANARMI-AYLANMASMI YER»

Men bilmayman, aylanarmi-aylanmasmi yer,
Bu bog'liqdir satrga so'zim mos kelmog'iga.
Men bilmayman, maymun bo'lishganmi bobom va buvim,
Shuningdek, bilmayman menga shirin yoqarmi, nordon.
Ammo bilamanki, men jo'shib yashamoqni istayman,
Istaymanki, quyosh yonsin mening tomirlarimda.
Qalbim titroqlari qo'shilib ketsin,
Ona tabiatning titroqlariga.
Ammo men istaymanki, yulduzlarning shu'lasi
Mening bedor ko'zlarimdan o'psinlar.
Ohular ohuni o'pgan singari (oh ularning go'zal ko'zlari),
Ammo men xohlaymanki, mening qo'shiqlarim
Qo'shilib ketsin olam qo'shiqlariga
Va men ishonmoqni istayman juda
Nimadir borligiga, nimadir qolmog'iga.
Qachonlardir sevgilimning qaro sochlari
Vaqlar o'tgan sayin oqargan chog'da,
Olib tashlagim kelar qavslar orasidan,
Menga mushtarak bo'lgan jamiki omillarni
Quyoshni, osmonni va inju g'uborlarin.





* * *

Ey, siz xalq tinchini misli sherlardek,
Uch yillab asragan rus bolalari.
Bilingki, ko'p qoyil qoldim sizlarga,
Mehnat tuynuklarin siz yopgan sari.

Arslonning yalang'och ko'kraklariga
Uchgan o'qqa qalqon bo'lgan jonlarim.
Har yoqda quvnoqsiz hamda navqiron,
To'p uzra mudragan mallasochlarim.

Izladingiz sovuq – ochlikni beun,
Unutib ko'rpa-yu, yostiq neligin.
Sizlar yosh sherlarim, dengizchi qo'shin,
Yadro ichra naq shiddatkor qo'rg'oshin.

Qozonxona bug'in shiddati birdan
Uchirib yuborar odamni shu top,
Cho'yan burmalari o'rniga bu dam,
Vujudingiz qalqon qilgansiz shitob.

Qo'lingiz vishillar hamda tutaydi,
Va dengizga kuygan bir hid taralar.
Kamdan-kam qovrilar odamzod go'shti,
Ammo bug' vujudlar bilan to'silgan.

Bug'lar-ku uchmaydi va lekin kema,
Hushtakli snaryad uchirdi bu choq.
Sizga aytsam, ey baqiroq o'smirlar,
Dunyo boyqushidan «Qoching» uzoqroq.

Maslahatim shuki, chiqib olingiz
Katta avlodlarning siz yelkasiga.
Ularning qurgani faqat zinalar
U yerdan ko'zingiz uzoqni
ko'rar.
Oz qolgan kunlarning kesishmasida.





MEN G'ALABA QOZONDIM...

Men g'alaba qozondim, endi,
Olomni boshlab borgumdir,
Kipriklarda porlaydi ishonch,
Iymon – mo'jizaga muovindir.

Qayerga? Savdolashmay beraman javob,
Men o'shal qirlardan yuksakroq inson.
Xalq go'yo tomidan ayrilgan uydin,
Devorni surolgay tomlarga tomon.





YILLAR, ODAMLAR HAMDA XALQLAR

Yillar-u odamlar hamda xalqlarning,
Abad shoshilmoqlik erur matlabi,
Misli oqayotgan shoshqin suv kabi.

Tabiatning turlanuvchi ko'zgisida,
Yulduzlar – dengizdir, biz-chi gulmohlar,
Tangrilar – zulmatda kezgan arvohtar.





KABUTARNI OZIQLANTIRISH

Kabutarning iliq nafasini yutib,
Tag'in kulib uni surbet ataysiz.
U esa bukri tumshuqlarini sizning
Bo'yalgan labingizga bosib,
Qanot silkir sizni, kaptar deb o'ylab.

Zo'rg'a!
Uchib kelar zarg'aldoqlar to'dasi.
Tong uchburchagi kabi, tanada
Yashirgancha qorong'uda qoshlarni.
Tonggi dengizlarning oyinalari.
Shohlar ko'pigidek pastga choshlandi.

Ularning yarqiragan poxollari ostidan
Oltin ob-havoning havosisimon.
Ba'zan tanish qoya ulkan muzlarni
Itqitib yuborar zaminga tomon.

Kabutarning malinarang panjalari
G'arq bo'ldi-yu semiz sochlar turmagiga.
Uchib kelib, kuz-ayozli kunlarda u,
Aylandi-ku o'rtoqlarini ermagiga.





OSIYO

Har doim qul, ammo bug'doyrang
ko'krakli shohlarning vatani,
Evaziga qulog'iga osilgandir
davlat tamg'asi bosilgan sirg'alar
U qilichli bir qizdir, hech yengilmas,
U bir qoya – isyonlarning kampiri.
Siz – yozuvin dengizlar qo'li yozgan
U kitobni varaqlaysiz ohista.
Kechalar odamlari siyoh bo'lib porlaydi..
Shohlarning otuvlari – bu g'azabkor
Va oyoqqa qalqqan undov belgilari,
Qo'shinlarning zafarlari esa
misli vergullar.
Va dalada – nafratlari qo'rquv bilmas
Son-sanoqsiz ko'p nuqtalar kezugaydir.
Xalq g'azabi eng oldingi safda turar,
Yuz yilliklar yoriqlari – qavslardir.

Zikrilla NE'MAT tarjimalari





UMR

Yillar, odamlar va xalqlar,
Ortga boqmay ketib borar.
Umr esa to'xtamay
Misoli suv kabi oqar.

Ko'hna dunyoning
O'zgaruvchan manzarasida:
Yulduzlar yoyilgan to'r,
Baliqlardir odamlar,
Azroil qorong'ilik
Farishtasi aslida!





TASVIR

Rassom nigohida
Aks etgan manzara.
Yorqin bo'yoqlarda,
Jilva qilganin qara.

Fillar don tishlarin
Shunday urarlar.
Atrofga uchqundek,
Oq toshlar sachrar.

Bug'ular shoxlarin,
Olgandir tirab.
Go'yo qadim nikoh
Turadi bog'lab.

Daryolar ilondek ketar chirmashib,
Chayqalib dengizga oqar ohista.
Go'yoki bir-birin bo'ynidan bo'g'ib,
Kulib ham qo'yadi unsiz, shikasta.





CHO'QQIDAGI MAHLUQ

Cho'qqida bir mahluq hukmron,
Ters o'tirar, dahshat solganча.
Yungli qo'llarida turar nogahon
Qadimiy g'aroyib bir ajib xumча.

Yonar ko'zlarila boqar chayqalib,
Daraxt shohlaridagi mevaga hayron,
Yetar, ko'nqliga qarash, majruh mahluqni.
Vayronalik ishi, yoqoting shu on.





YANA BIR BOR

Yana bir bor,
Yana bir marta,
Sizlar uchun,
Yulduzman qayta.
Kaftidagi taqdir chizig'iga qarab,
G'am chekkan dengizchiga havasim kelmas.
Yulduzlar toshlarga aylanib uchar basma-bas,
Dengiz ostidagi bo'rlar ham jim turmas.
Sizga esa qilarkan alam,
Yuragimga yo'l topmadingiz sira ham.
Toshlar esa ustingizdan ayovsiz kular,
Meni mazax qilganingiz ular ham bilar.

Bahrom AKBAROV tarjimalari





OSIYO

Hamisha kanizak, ammo shohlar vatani
bilan qoramtir ko'ksida

Va quloqdagi zirak o'rmda
davlatning tamg'asi.

Goh qilich taqqan qiz, bilmas homilani,
Goho doya – isyonlar momosi.

Sen u kitob sahifalarini varaqlaysan,
Bitiklari siqiq dengizlar qo'li ila.

Siyohlar bilan tunni yoritgan odamlar,
Shohlar otilishi undovning

Alamkor belgisi,

Vergul bo'lib xizmat qilar qo'shin g'alabasi,

Ko'p nuqtalar esa – maydon, ya'ni jur'atkor jazavasi

Xalq g'azabining ko'zim o'ngida

Qavs esa – asrning darzi.





HAYOT

Qilichdagi qip-qizil shudringni
Quritasan to'liqli soching-la.
Bu yerda jallodning kulgisidan
Kelar o'sha, telba jazava.

Goho haqiqatgo'y qorako'zli bir –
Folbindayin jim, sukutdasan.
Goho xoxolagan suv parisiday
O'tirasani mamont tishi ustida.

U o'ldi, ko'tarib tishlarini
Yana osmonda ko'rindi Xors.
Tiriklikda uni bilardi yomg'ir—
Endi u xarsang, u endi muz.

Bunda yo'rtasan, mayin, issiq
Pichoqlar orasida, alangaday, yorug',
Otishmalarning to'zonida ochiq
O'lik qo'llaridan tushdi bayroq.

Bu yerda tezlatding vaqt oqimini
Hukmini o'qiydi kunda bidirlab.
Bu yerda otishmaning qonli qurboni
Toshbaqa hayoti yotar imillab.

Tongning ol oqqushlari bu yoqda
Yangi qanotida kunni uyg'otar.
Keksa shohdan qolgan bitik u yoqda
Qumlar bilan ko'milib yotar.



Bu yerda chopasan biyaday erkin
yetti qanotli yo'l izingda.
Alvon poytaxt bilan xayrlashasan,
«Kechir» deya so`nggi so`zingda.





OCHARCHILIK

Nechun bug'ular va quyonlar o'rmonda yugurmoqda
qochib panaga?
Odamlar yedi tog'terakning po'stlog'ini
Qarag'ayning novdalarini yashil...
Ayollar va bolalar daydir o'rmonda
Yig'ishtirar qayin barglarini
Shovul sho'rva, yaxna sho'rva, karam sho'rva uchun.
Qarag'ayning tepa barglari va kumushrang mox –
O'rmonning taomi,
Bolalar, o'rmon qidiruvchilari,
Daraxtzorni kezar,
Gulxanda qovurar oq chuvalchangni,
Quyvon karamini, semiz qurtlarni
Yoki ankabutlar – shirin yong'oqdan.
Ovlar ko'rsichqon-u kulrang kaltakesaklarni,
Vishillagan ilonni otar kamondan.
Non pishirar oqqushdan.
Arvoh kapalakni quvlar ochlikdan:
Yig'ildi mana, bir qopi,
Karam sho'rva qilinar bugun kapalakdan –
Onalari pishirar.
Quyvonni, yengil-yengil sakrab yurgan o'rmonda
Tushlarida ko'rar bolalar aniq,
Boqar hayajonda, ko'zlarini ochib katta-katta,
Ochlikdan poklanganlar
To'g'risi, ishonmas
Ammo u qochadi chapdast va chaqqon
Qulog'i uchlari qorayib
Orqasidan uchib ketdi kamon o'qi
Ammo kech – ketdi tushlik to'yimli.

Bolalar esa turar hayron...
 «Qara, u yoqdan kapalak uchib o'tdi...»
 Tutib ol, yugur!. U yoqda esa zangori!...
 O'rmonda qovog'i soliq.
 Bo'ri yelib keldi uzoqdan
 O'tgan yili qo'zichoqni
 Bo'g'izlagan joyiga.
 Uzoq aylandi, chiqdi hidlab hamma yoqni,
 Ammo hech narsa qolmabdi –
 quruq tuyoqdan boshqa – bu qumursqalar ishi.
 Ranjib, shaqirlagan qovirg'asin qisib
 O'rmonga kirib ketdi.
 U yoqda, qor ostida uxlab yotgan,
 Qizilqosh va oqbosh qarqurlarni,
 Og'ir panjalari bilan bossa,
 Qorlar orasida ko'milib yotsa...
 Tulkicha, cho'g'day mallarang
 To'nkaga chiqdi bo'lib kuchala
 Va o'yladi kelajak haqda...
 It bo'lsamikin endi?
 Odamlarga xizmatga borsami?
 To'rlar cho'zilib yotar talay –
 Xohlaganingga kirib yot...
 Yo'q, bu ish xatarli.
 Paqqos tushirar malla tulkini,
 Itni yeb qo'yganlari kabi!
 Itlar vovullamas qishloqda...
 Yuvindi tulkicha mayin qo'llari bilan.
 Balandda ko'zi tinib, dumi yoniq yelkanday.
 Dedi, vaysab olmaxon:
 «Qani mening yong'oqlarim, cho'chqayong'oqlarim –
 Odamlar yeb qo'yibdi!»
 Tushmoqda tinch, shaffof oqshom,
 Qarag'ay o'pishib tog'terak bilan
 shivirlashdi asta.
 Ehtimol, ularni nonushtaga kesishar erta.



ERON QO'SHIG'I

Erondagi qay bir daryoda
Uning yashil oqimlarida
Uning ko'm-ko'k poyalarida
Shirin suvlar yonida
Tentirab ikki tentak
Otishardilar sudak
Mo'ljallab manglaydan qoq.
To'xta, jonginam, biroq,
Aniq, xotiram aldamas,
«Bu hayot – hayot emas!»
Samolyot ko'kda, mana,
Ayt, ochildasturxon, qani –
Samolyotning xotini?
Kechikdimi to'satdan,
Yo tushdimi zindonga?
Ishonardim ertakka
Ertaklar do'ndi chinga.
Kelganda navbat ammo
Bo'larman men ham to'zon.
Bayroqlarni o'shanda
Olomon eltar shodon.
Uyg'ondim, yerda poymol
Sog'inib bosh suyagim.
Yoki barcha huquqim
Tiqaymi pechkaga yo?
Qoray, maysazor o'tloq,
Toshga aylangin, daryo!



FORSDA TUN

Dengiz sohili.
Osmon. Yulduzlar.Xotirjam yotaman.
Tosh emas, par emas yostig'im esa –
Dengizchining yirtiq etigi
Ularda beboshlar qizil kunlarda
Dengizda isyon ko'targan.
Oq kemada olib ketilgan Krasnovodskka
Qizil suvlarga.
Qorong'ilashar. Qorong'u.
«O'rtoq, kel, qilgin yordam» –
Cho'yanday qop-qora eronlik chaqirar
Shox-shabbalarni ko'tararkan yerdan.
Men kamarimni tortdim.
Ko'tarishga berdim yordam.
«Sag' o'l» (ruschasiga «salomat bo'l»)
Bo'ldi qorong'ilikda g'oyib
Men shivirladim qorong'ilikda
Mahdi ismini
Mahdi?
Qora shovqinli dengizdan
Uchib kelgan qo'ng'iz
Menga oldi yo'l
Ikki marta aylandi boshimda
sochimga qo'ndi, yig'ib qanotlarini
Jim turdi va so'ngra
G'ichirladi to'satdan
Tanish so'zlarni aytdi aniq,ravshan.

Ikkimizga tushunarli tilda.
U qat'iy va mehr-la aytdi o'z so'zini.
Yetarli! Biz tushundik bir-birimiz!
Tunning sirli bitimi
Imzolandi qo'ng'iz g'ichiri bilan.
Qanotlarin ko'tarib misoli yelkan
Uchib ketdi keyin qo'ng'iz.
Dengiz yuvib ketdi qumdagi g'ichir va o'pichni
Bu bo'lgan voqea!
Bu boshdan-oyoq haqiqat!





ALFEROVO

Kam bo'lmagan botir qo'mondonlar,
«Baxtiyorman» deb tuproqqa bosh qo'ygan.
Bilardim, novgorodliklar zotidan
Avlodim deya mag'rurona kuygan.

O'tirib oppoq paxmoq bedoviga,
Polsha qirolini cho'ktirgandi tiz.
G'alabalar vafo qilmay gohida
Kularkan avvalgi do'stlardan, afsus.

O'tirar qari jo'ka ko'lankasida
Zafar qozongandi u Izmailda.
Bosh egib bir to'p buyruq qog'ozga
O'layotgan chog'da aytdi: «Biz yengdik».

Jar ustida ot choptirgan amakim
Zabt etganida naq ruslar Gunibni.
Tatar qilichining jarohatidan
Daryo bo'lib qoni oqdi. – O'ldi u.

Chopag'on bedovlar qop-qora tusda,
Taqalarining jarangida yangroq.
Olib yurdi botir suvoriylarni
Dunay daryosining bo'ylarida goh.

Bobolar otlarining tuyoqlari,
shaxtida tug'ildi rus saltanati.
Har bir yurishlari zafarga to'la
Shon-shuhratning do'stlari bilan.

Anavi odam qilgan Sharqda xizmat,
Qayrilmasdan aslo ajal o'qiga.
Kulib degan u dushmaniga «Rahmat».
Qo'llarini shartta qo'yib ko'ksiga.

Endi-chi, mulklar bobolardan qolgan
Olov girdobida qishlog'u saroy.
Qo'rg'onga baqamti turgan binolar
Ertalabga dovur yondi, hoynahoy.

Ammo bobolarning urfiga sodiq
Posboni otalar vasiyatining.
Uy va xonalarda bezovta kezar
Uchlarini tortib mo'ylovlarini.

Sevimli zotlari ular poytaxtning,
Ulug'lar safida shaxdam yuradi!
Yuzlarin negadir biroz xo'mraytib
eski chorcho'plardan boqib turadi.

Abdumajid AZIM tarjimalari





* * *

Bobeobi kuylar dudoqlar,
Veeomi kuylar nigohlar,
Pieeo kuylar qovoqlar,
Lieey – kuylar yonoqlar,
G'zi-g'zi-g'zeo kuylar tomirlar.
Uyg'unlikning qiyofasida
O'zini namoyon etar YUZ.





O'LAR CHOG'IDA

Otlar o'layotganda – og'ir dam olar,
O'tlar o'layotganda – qovjirab so'lar.
Quyosh o'layotganda – bo'zarib so'nar,
Odam o'layotganda – yurakdan kuylar.





TILAGIM

Tilagim ozgina!
Burdagina non,
Tomchigina sut,
Shugina osmon,
Shugina bulut.





* * *

Qora ko'zlarining etigi bilan
Yuragimning atirgullarin
Yanchib, payhon aylagan qizlar.
Kipriklarning oyna ko'liga
Nayzalarin botirgan qizlar.
So'zlarimning tiniq ko'liga
Oyoqlarini yuvgan qizlar.





GALITSIYA TUNI

Suv parisi

Eski qayiq taxtasidan
O'tlarga boqaman gum.
Qum uyumlar taxtida
O'ltiraman yolg'iz, jim.
Qayga chopasan, sulton,
Aylanadi charxpalak.
Qarg'a, qarg'a, kelar mehmon?
Botir bo'lar juvonmarg.

Ritsar

Jondan o'tdi sovuq yomon,
Chinqiradi mast suv pari.
Baqir-chaqir, to's-to'polon,
Ketaman bu joydan nari.

(Ketadi)

Yalmog'izlar qo'shig'i

La-la it! Li-li jam!
Jum-jam – jam lele.
Jam lele! La, la, jam.
Jum-jam! Jum-jam!

Suv parilari

(kuylaydi)

Ia io solk.
Sio ia patso!
Pits patso! Pits patso!
Io ia solk!
Jizza, jizza, jizza!

S u v p a r i l a r i
(Saxarov darsligini qo'llarida tutib, unda yozilgani
bo'yicha kuylashadi)

Olchalar, gilolar aro
Kezimiz yuzimiz qaro.
Ba'zan ko'zimizni o'yar,
Baliqlar qiltig'in suqib.
Irmoqlar oqizib ketar,
Tor qirg'oqlarga tiqib.
Suvning toshgan ko'pigiga
Oq qo'ylar urar quchog'in.
Sivizg'aning qo'shig'iga
Jo'r qilar qassob pichog'in.
Ruaxado, rindo, rindo.
Shono, shono, shono.
Pinso, pinso, pinso.
Pats, pay, pay.

Oprishkachilar¹ do'stining dafni
«Pichoq qochip!» – jang o'roni,
Endi o'lgansan, do'stim.
Shafqatsiz harb o'g'loni,
Yuzida o'lim po'sti.

S u v p a r i s i

Kimning jasadi ko'marto'dachi,
Bu jumboqni topchi, qani, egachi.

S u v p a r i l a r i

Io ia solk,
Io ia solk.
Pits, pats, patsu,
Pits, pats, patsa.

¹ *Oprishkachilar* – XV asrdan XIX asrgacha Galitsiya, Karpat, Karpat orti kabi o'lkalarda krepostnoylikka chiqqan xalq harakati ishtirokchilari.

Io ia solk, io ia solk,
Kopotsamo, minogamo, pinso, pinso, pinso!

Y a l m o g ' i z l a r
Shoxodam, mohodam, vohodam,
Chuh, chuh, chuh.
Chuh.

*(turnalar galasiga o'xshab uchburchak shaklda saf tortib
uchib ketishadi.)*

Galisiyalik ayollar gurungi

Mavka² bilan yashar-u
O'rmonda, baland tog'da.
Odamlar ko'rishgan-ku
Zulmatli tunda, tongda.
Bu chin, alahsirashmas,
Jodu toshini ko'rib,
Bil-chi! Mava qoraqosh,
O'likni kaftda tutgan,
Sasigan piyozdek bosh.
Zaharli ilon qo'lda,
Baliqqo'shig'i tilda.
Terisi shilingan, yo'q,
Badan na'matakdek qon.
Shumqadam, ko'zlari lo'q,
Bir boqib, sug'urar jon.
Qorachug'i qon – shilta,
Belbog'ida oybolta.
Qo'rqitar, kulmas ayol,
Xa, bu dahshatli xayol.

Rustam MUSURMON tarjimalari

² *Mavka* – ukrain mifologiyasi personaji. yovuz suv parisi. Mavka «navka» – «o'lim», «jonsiz jasad» ma'nosini anglatuvchi so'zdan kelib chiqqan.



* * *

Olisharlar dandon tish
Fillar sarsari,
Musavvir qo'lida
Oq tosh singari.
Bug'ular shoxlashar
Sovuq, ishonchsiz, -
Qadimiy rishtadan so'z boshlab.
Daryolar quyilar dengizga
Bir – birin bo'yniga qo'l tashlab.





* * *

Yana bir, yana bir marta –
Yulduzingizman.
Dengizchi qayg'usi –
Kaftiga sig'mas yulduz.
Toshlarga urilib parchalanasiz –
Suvosti sayozliklari.
G'am chekasiz, negaki,
Yuragimning nozik joyiga
Urilib ketdingiz;
Bo'laklaydi sizni-da taqdir –
Ustingizdan jim kula boshlar
Mening ustimdan
Kulganingiz kabi.





* * *

Yillar, odamlar, xalqlar...
Yugurarlilar misli oqar suv.
Tabiatning nozik ko'zgusi,
Yulduzlar – yoyma to'r,
Biz esa – baliq.
Ma'budlar – zulmatda sharpalar liq – liq.





* * *

Oqshom. Soyalar.
Ko'lanka. Mudroq.
Masurmiz bu kech.
Har bir ko'zda yeladi bug'u,
Nayza uchar har bir nigohda.
Ufq, borliq, tuyg'ular yoniq,
Uchib chiqar do'kondan bola.
O'ngdan ko'ra chap tezkor edi,
So'lmas, so'zga yaqinroq edim...





* * *

Yuksakda yashar mahluq,
Dahshat – dahshatli,
Maftunkor ko'zi charos
Ko'za ko'targan qizni
Tutib oidi, qiz go'yo
Mevaday tebranadi
Pahmoq qo'l panjasida.
Tasqara mahluq, bas qil, -
Bekorchilikni! –
O'zingni behuda ovutma.

Oygul SUYUNDIQOVA tarjimalari







SHOIR

Doston

Bog'lar fayzi o'zgacha, qara,
Qizaradi kuzgi o't – o'lan.
Yarqirab oqadi sharshara,
Qorlar g'olib, ruhlari baland.
Qaynoq tiniq o'ylar hush – behush,
Tik qayinlar ajib yasangan.
Qish xabarin berar jarchi qush,
Vidolashar yashillik bilan.
Harir tillo ro'mollarini
yelkasiga tashlaydi qirlar,
Oqish jarlik shamollarini
Tiniqib tinglaydi adirlar.
Karomatgo'y aytmoqchi bir so'z –
Qish kuzatish bayrami qizg'in.
Shodlanadi yurak ila ko'z,
Qisqa kunlar chekinar beun.
Quyosh bosib o'tgan yo'llarda
Qish to'shaydi yerga oq to'shak.
Aldamoqchi – o'ng-u so'llarda
Yuguradi yeldek bug'ular,
Bosh uzra yoyilar oltin yog'dular.
Kun yarmida oyoq ostida
Jodulangan jonivor yotur.
Yalangoyoq o'tlar o'tloqdan barcha,
Yuraklarga e'tiqod tutur.
Jo'ka daraxtini zar parcha
Soch tolasi kabi chulg'aydi.
Insoniyat nasli,

O't bilan o'ynashar – bilmaydi.
Jinnilikka solar o'zini,
O'zgaradi asl qiyofa, –
Qish zahri-la tozalab olar
Bo'shliq, alam, hazar so'zini.
Kelgin bahor! Qish, ko'zdan yo'qol!
Yangrat bahor, kuylaring xushhol!
O'zgaradi odam bir zumda,
Liboslari, gul tabassumda.
Bulutlarga burkangan samo,
Har qadamda gullar bebaho.
Bulutorti – sukunat jo'shib,
Uch ko'klamga mehringni qo'shib.
Quyosh o'zga damni sharaflab
Porlab, bahor kiyingan yengil.
O'tkinchi yel maysalarga lab
Qo'yar-qo'ymas eriydi hil-hil.
yellar siypar kumush maysani,
Ilhombaxshdir so'zlar-u kuylar.
Tizzadan sirg'alar matolar,
Uzuklarni yorug' tush siylar.

Qanoting yoz, qo'shni, bo'l tayyor,
Ortingdan ko'chadi nurlar bir quchoq,
Tuyg'ular zanjiri, gul ifor,
Suzayapman hatto men quvnoq.
To'liqadi dengizlar toza,
Sharq tomonga uhasan yana.
Tikilasan maftun, dil yoza,
Havolari moviy tantana.
Tushlar kulcha ilonlar kabi,
Gul rangida tuyg'ular bedor.
Ilhom ila qorishar qalbim,
Uyg'onadi ko'klam betakror.
Kun sanaysan, bu dunyo – savdo,

Shiddat ila oqib o'tadi,
Tunlar cheksiz zahmatdir go'yo,
Hurlar ishqni toza tutadi.
So'nmas bayram zavqi abadiy.
Hazel-huzul, qiz-juvon xursand,
Shaqildoqlar tinmas bada-bang.
Qiziqchining xalta to'rvasi,
Olomon – donoday, alamli
Hayqirar: «Hur qizlar – Sa-sa!»
Kuylayotir sarxush odamlar.
Ikki do'kon band,
O'rindiq yonida qora tol.
Havoyi kulgular – tasodif,
Suvchelakdan toshadi xayol.
Yayraydi bashang lo'li
Torga tegar – tegmasdan qo'li
Boshlar yalang oyoqlar o'yin.
Sho'x, bebosh
Qoramag'iz, qorasoch bola
Qovoq otar o'tgan-ketganga,
Qo'li, tili o'tkir tig' monand.
Ayol taqillatar, qarsillar
Nayzasimon eng yengil qalqon.
Yasangancha gala qiz-juvon
O'ynab kelar yelday shodumon:
«Dugonalar, rostmu, shu rostmu. –
Uxlab o'tgan emish alvasti?
Singillardan ajrab, nima bu –
Nahot hozir uxlamog payti?
Uzr, do'stim, yo'ling bo'lsin,
Buncha taxir bu rasvolik, oh!»
Qiynashadi chimchilab, yakka
Yuguradi, – sakraydi hakka
Kabi qochar, qizday sarsari
Ayi q chopar qushlardan chaqqon, –

Bu bezori to'dadan nari.
Yuzlarda lovullar xushnudlik,
Yaltillaydi lablar – ol g'uluv.
Ko'ngillarga bu qora tanli
Nayzalari bilan uyg'otar qo'rquv.
Lek ortidan aldanib erkka
Sotuvchilar qo'lin silkiydi
Ko'targancha savatni tikka,
Quyoshli kunlarida yuzlari kuydi.
Balqiydi yuzlari, ko'zlari
Qoramag'iz skripkachi shod.
Bir zumlik sukunat bag'rida
Mingdevona raqsiday ozod
Ko'kdan tushayotib tozargan
Sakrayotir bolalar baland,
Avjga chiqadi shaytonlar
Ko'lankalar kabi zanjirband.
Kimningdir tushiga kiradi
Yo qaysi tushlarga chirmashar.
Go'yo ko'klam derazasiga
O'zga bir dunyodan
Kimdir tirmashar.
Kulguga shon-sharaf! O'lim g'amho'ri!
Hilpiraydi bayroq. matolar.
Hali o'chmas kulguning qo'ri,
Hovliqadi ko'ksi adolar.
Hiyla-nayrang ustasi, battol
Qo'rqmas sakkizoyoqlar misol
Og'zi katta kit o'ligini
Devordek
yelkasiga ortar bermalol.
Ikkita qalandar – payg'ambar
O'zini urishar ichkari tomon.
Unut e'tiqoddan bahs boylar,
Qor ortidan qor yog'ar hamon.

Joyiga tushadi iymon va imdod,
Joziba, halovat birdek yoqimli.
Faryod chekar chorg'u, ichkin dod,
Qariya «qu-qu»lar sim-simli.
Qor uchquni quvlar qor uchqunlarin –
Rangsiz, quruq va sovuq qorlar.
Yana qaytib kelmas bu bayram,
Egnida bo'z bo'ri terisi
Harbiylar qo'lida qilich va qalqon.
Shoshiladi xudojo'y kampir
Boshida soyabon, – xudojo'y tomon.
Na moviy ko'zlar!
yer ostiga kirib ketdimi chunon!
Abadiyat ruhi to'lqinli –
Borar manzillari – ibodatxona,
Muqaddas suvratlar, muqaddas kalom,
Islomiy farishta Hur qizlar
Mo'yqalamin qo'lga oldimi rassom?
«Ayt-chi, qo'shni, – o, Yaratguvchim!
Kim ekan u tirik Tangri onasi?!»

«Uning soya solguvchi ko'zi
Poyida tiz cho'kar tillar begumon,
Shivirlaydi unga muqaddas bir nom, –
Shu nomni muqaddas sanaydi inson.»
Oppoq, oppoq haykallar yoqqa
Ibodatday yog'ilar huzur,
U ilohiy qo'llari bilan
Sochib borar xayr – sadaqa,
Xo'sh! Xo'sh!
Nima bo'ldi, –
qay zolim
Qo'shiqchini yetakchi qildi!
U odamlar nigohidan tortinar,
Uning mashg'uloti g'ariblik!

Biroq yuzi g'arib emas, –
Ko'kday tinch, ol yonoq.
Uning yo'l-yo'l oq ko'ylaklari
Oq toshlarday tarashlangan sof.
O, olis o'lkalar g'aribasi,
Unutganga o'xshaysan Tangri
Onasin uyini muqaddas, shaffof!
Qo'rquv. Jim turishar...
Oq nurlar oralab bir gala
Bolalar va karaxt olomon.
Bayram birdan tindi.
Shamollar – chinqiriq, qah-qahalar – kul,
Yovvoyi qiyqiriq – qizil tanlilar
Qochishar orqa-yu oldga, o'ng-u so'l,
Niqob ortidagi yo'lovchilar ham
O'yinga tushishar, cho'kkalab birdam.
Ularga izma-iz tannoiz olomon
Chiyillab yig'lashar, solishar chuvvos
Masxarabozlar,
Mushuklar miyovlar: «Bir-biringni bos!»
Qattiq kulgu yangrar ko'chada
O'chib ketayotir jin va yilqilar,
Tuya odam bukchayar,
Baliqqa til bitar,
Boyqushlar ko'zin yitar,
Kuya, qurum bosgan mo'ylov baqalar,
Aravalarda
Qizil qisqichbaqalar,
Gul taqilgan sochlar, kulbada
Bayram oqshomi jinni
Bochkani tunuka bilan urar-da,
Chinqirar,
qizchani sudrab chiqarar;
Qurumlar nam, ayniydi havo,
Gulxanlarda qorayar cho'g'lar,

Olislarni

G'ira-shira ko'rar ko'zoynak
Sirg'alib tushadi yuzlarga.
Tungi poytaxt olovli sehr,
Ko'z tushmas yerlarga jo'nar arava,
Shom chog'i sham kabi alvon shu'lalar,
Oqarib ko'rinar g'arib kulbalar.
Ming-minglab sanoqsiz kulbalar aro
Qayda olov, qayda o'lim irg'ishlar.
Kulgu vaqti! Yulduz onlar, o!
Shamol bilan yelar qarg'ishlar.

Qorli uchqunlarning o'jar nayzasi
Ko'prik yuzasiga tushar yiqilib.
O'rindi. Ruhoniy sochi qirilgan,
Moviyo'z xudojo'ylar safida
Qorako'z xotini bilan bir bo'lib,
Tebranishar aylanada uzun va besas,
Yarim tunda qizg'ish cho'g' yondi,
Ayol soch turmagi – gulbarglar kabi.
Tim dengiz ko'zlar tubiga
G'am-shodliklar tom-di, to'lg'ondi.
Hashamatlar yanada yorqin,
Sirli tushlar ko'zini ochdi.
Bo'ron uvlar, lek vujud erkin,
Ko'zlar yotdek sendan ham qochdi.
Olomon telbadek qaygadir uchar,
Ko'lankaday rangsiz, goho qoramtir.
Ba'zan yovvoyiday jonsiz ma'budlar
Yoki payg'ambarlar murdasin quchar;
G'arb qayda – Sharq qayda, chalkashib ketdi,
Uzun oyoqlari toliqqan shamol.
Kunduzgi saboqlar yakunga yetdi –
O'ychan tikiladi marjonga yal-yal.
Tubsiz iztirob-u, o'ylar zil-zambil,

Devorga suyangan ko'yi abadiy
Asir singari
Bilmaydi – bu dunyo g'avg'osi turfa, xilma-xil.
Qirlar-u, daryolar, sharsharalarga,
Qorong'ulik tushar tog'larga mubham.
Moviyrang gullarni qoplaydi zumda
Yoping'ichday yerga singadi mahkam.
Qoshlari – uyquda uchar qaldirg'och,
Ilgakda Ladoga monand o'ralgan,
Tutqanog'i tutgan xudosiday och,
Chuqur qaysar og'zi o'ralgan.
Sochlar baland-baland zulmatdan
Yoyilib tusharlar – bug'ular
Quturgan to'dasi bilan to'satdan
Shoxlarin irg'itib yugurar yelday,
Dengiz to'lqinlari, hayajon selday
Aqldan ozdirar shoxlari ila
Bir-birin siqarlar g'azabga to'la,
Zulmat ichra daraxtday karaxt
Basharadan qaltirar barcha.
Yo'lboshchi ko'ksiga urilar badbaxt
Uchib tushgan muzdan bir parcha.
Sochlari yelkasi osha yoyilgan
Quturgan bug'ular to'dasi aro
Bo'm-bo'shliq, sharshara yonlab, bitta tan –
Bug'ular, bug'ular uyuri paydo.
Qo'rquv bazm qurar, uchadi qushday!
Qo'shiqchi (moviy zulmat, ro'dapo,
Yuvib o'tdi to'lqini uning
Bo'ynidagi g'ijim matoni go'yo).

Qizil olmos suvni yoqdi qizartib,
Yulduzlar shu'lasini maftunkor.
To'g'nog'ich qadalgan moviy yoping'ich,
Sug'urta qilingan qiz qalbi bedor,

Sochlari shovullab ketayotgan qiz,
Xursandmisan chindan
Telbavash bug'ular daryolarida
Aylanib, kun-u tun har yoqqa
Bo'sh-bo'sh, qor olomon sahrolarida,
Yanada oqarib ko'rindi yoqa.
Ulug' vaqt, unut kech oqshom
Qizga bergan va'dang.
Sochlaring tarading, yasanding bashang,
Yovvoyi suvburgut qanotlarida
Egilar marvarid boshloqlar,
Yurakni zabt etgan gul boyvuchcha qiz.
Shamol bo'laklaydi to'lqinlarni tez,
Uyg'onadi bo'ron uvillab,
Qichqirar birinchi chag'alay,
Eshkaklar sirg'alar paydar-pay,
Qorayib qaytadi kimdir daladan,
Shudgor boshlanadi; ajib pallada
Uyqu ham kelmaydi, toshib kelar zavq,
Alvon rang tutadi keng borliqqa shavq.
Moviy tosh devorlar soyasi
Tushmaydi qop-qora jingalak sochga.
U esa qo'lini ko'ksiga qo'ydi.
Ko'ksiga yopishdi toshday ko'lanka.
U hayotdan qochdi, xayolga yo'ydi –
Qaysidir nurlarga ilashib,
Na shirin orzu-la quvlashib,
Kutdi
Ko'kdan tushayotgan dil sadolarin,
Eshitmas na hayrat, na vidolarin;
Unga tortiq vaqt bebahodir,
Suv ichiga botgan tuproqday,
Gullari yo'q, bo'm-bo'sh guldonlar,
Na hid, na tuyg'u.
Oyog'i ostida yig'lar suv pari,

Ko'ngilga to'ladi rangsiz istaklar,
G'ildirak shovqini tindi, suv pari
Yoniga cho'kadi, tinglaydi takror
Oqshom qo'shiqlarin necha-necha bor.
Suv parining nozik qo'llari
Mag'lub etdi bu oqshomni ham.
U unutib qo'ydi o'rmonlar,
Shaytoni bor tegirmonchini.
Qizga bergan bir dunyo qasam, –
Kim bilibdi bu yolg'onchini! –
Quloqni kar qilguday avrar,
O'yin boshlar suvda jilvagar.
Yulduzlar chatilgan hikoya
Bilmas nihoya,
Tungi hovuz ustida qora shohi,
Kimdir eshitadi olam sirini,
Ko'kka ko'tarilar – so'zlar panohi.
Yerga nazar solgan ko'kdan kim edi?
Yana kimdir chiqishini kutadi,
Bir yengil jon berdi, jimidi,
Tosh ustida soch taragan kim edi? –
Suv parisi tiniq tortadi tunda,
Yashirinar jo'ka ortiga, bunda
Tun bo'yi otliqlar shoshilar,
Tinmaydi ko'lbaqa – g'o'ng'ir-u qo'ng'ir,
Yugurar tegirmon tomonga qurg'ur.
Yurak dardlarini ovutar bir-bir
Toliqqan tegirmon parishon, dilgir, –
Hammasi illatlar qo'lida.
Og'riqlar yaraqlar o'pqonda,
Bu aldamchi tushlar osmonda,
So'zlar to'lqinidan chiqar boyvuchcha,
U yanada mag'rur, soddaroq picha.
Bejirim og'zini bir ochar,

Chiroyli tim moviy ko'zlari
Kuylar-u qochar.
Po'panaklar ortidagi nur,
Aldamchi jilg'alar to'lar shivirga.
Olovrang va qaynoq yulduzlar
Hamohang qorayar suvdagi sirda.
Suv parisi nozikta'b, shodmon,
Mehnatdan qarigan tegirmon.
Zag'chalarga to'lar daraxtgul,
Tun bag'riga kiradi hur qiz,
Yolg'izoyoq, sarxush, mag'rur yo'l
Olayapman shahar tomon tez.
Oy yarqirar yaqin va oydin,
Lek ko'karib ketgan tanalar
Qo'rqitadi odamni qaydin
Darvozani taqillatadi,
Ichkariga kirishar shoshib;
Nimalar bor hur qiz ko'nglida
Ne aqlga sig'mas, yurakdan toshib,
Karomat ham jim va tek.
Tungi oyimchalar, tungi sa'valar,
Ko'chalarda sho'x chappar urar, –
To'da-to'da va uyur-uyur.
Suv parisi oy shu'lasida
Kelinchakday tozaradi, boshda gulchambar,
Ko'zlarida tubsiz sukunat,
Qizaradi – qo'shiqchiga tashlaydi nazar.
Tun ko'zlari. Chaqirishar, uchib ketishar,
Oqqushlar o'lkasi – olis-olisga.
Gulbargaklar rangin va yengil,
Iltijo, iltijo, – dil to'lar hisga:
«Aylanardi go'zal o'ylarim
Bu kulrang tegirmon yonidan mening.
Ko'p qiynadi olov bayramlaridan
So'zlovchi hikoya, so'zlaring sening.

Oylar tushib keldi osmondan oxir,
Qorong'u o'rmonda ko'zlar adashib.
Odamlar singari chopishar, axir,
Arava-arava chaqmoqlar toshib,
Odamlar chala-chala haydashar.
Oq unday
Maydalanar bu ko'hna ochun,
Ter to'kadi unda fikr ila so'z.
Qartaygan dunyo bu –
Sakray-sakray jon berdi bir kun!
Jasad uzra moviy bo'tako'z.
Daryolar – ko'zi tiniq qiz.
Keng qadimiy olam uzra tun!
Azobladi meni hikoyang, so'zing,
Deya suv parisi jon berdi bexos.
Daryoga tushmaydi hur qizlar ko'zi,
Endi vaqt burguti chiqarmaydi sas.
«Azoblashga usta otasan,
Berahmsan, shu jim-jit tunda
To'nkangga gulchambar qo'yaman, shunda
Muxlislar qatori yozib qo'y meni!»
Qilt etmas. Qo'llari bilan quchoqlab,
Ushlar yopinchig'in bitta uchini,
So'ngra uloqtirib, bir so'z demasdan
Tikilar, jazava qo'zg'ar kuchini:
«Qotil ota! Shafqatsiz jallod!
Qabrga kirdimmi sening-cha?
Meni yeya boshlar qisqichbaqalar,
Qora panjalari qisar etlarim.
Nima uchun tungi ishkal chiziqlar
Qo'porib tashlaydi ilk shiddatlaring?
Taqdirimga yana nimalar yozding?
Istagancha atagil meni:
Bir quchoq nurlar jilvalanib turar oynakda,
Jilg'a hasratlari o'rlaydi ko'kka,

«Bor»dan «yo‘q»lar kuylar vodiysi,
 Yoki suv o‘ylari – sanoqlar butun,
 Siyraklashar bu moviy tutun
 Yo‘qlik odamlari to‘lqinlarida
 Sug‘urib olganing aqlni
 Ko‘tarmading tik –
 O‘lim orti – mudroq «biroq»ni.
 Yoki tungi ko‘zlar yolqinlarida
 (beshafqat va zahar titroqni) –
 Otligni yutayotgan girdobdek,
 Yoriqlardan oqqan oy nuri,
 Ertakka aylandi qismatim siri!
 Shafqating ayama! Ko‘rsat kuchingni,
 Qayirgin bu o‘tkir nayza uchini!»
 Hayajon ichida titranib,
 Imo qilding Tangri onasi tomon:
 «Sizlar – opa-singil, yaqin, mehribon».
 Birga yo‘lga tushing, – dedi. – Hoynahoy,
 Ikkalangizga ham bizning olamda
 Odamlar ichida topilmaydi joy
 (suv kelinchak – yulduz kelinchak)
 Qo‘l ushlab boring har bir qadamda,
 Daryo to‘lqinlari to‘rlar oralab,
 Shoshar kuyunchak, –
 Qorishib ketadi olis rishtalar,
 Qorong‘u ibodatxona tubida
 Devordagi naqshlarda huzur,
 Yoki to‘lqin makonlarida
 Bitilgandir darbadar umr,
 O‘ngimda samoviy nurga cho‘milsang –
 Oq ibodatxona.
 Yoki to‘siq soyasida
 Jon saqlar qashshoq,
 Janda kiyimlarda begona, irkit,
 Hoyu havaslari to‘lqinday ushoq,

Hashoratlar poytaxtiga ko'chayotir – kut.
Ilohiy ko'zlari yaltillab,
Poxolda yo yerda tin olar chog'i
Qo'llar tongga qadar orom oladi.
Xo'rsiniq vodiysi, qayinlar bog'i,
Achchiq ko'z yoshlari, faryod kulbasi,
yerdan quvilgansiz! – g'am dubulg'asi.
Peshona sho'r, qaltiraydi lab:
«Ta'zimimni aylangiz qabul».
Oppoq marmar zinalar bo'ylab,
Boqqa kirar Dalv burjida ul:
«Ont ichamiz, buzilmas qasam, –
Dedi u ko'tarib qo'lini.
Ikkisiga tutdi uzgan gulini.
Yillar bo'yi bir-biriga ulanar kunlar,
Hamonki, so'zlarda yangrayotir erk,
Badarg'a qilingan ul qizdan so'ylab,
Shafqatsiz qismatning yo'llari bo'ylab,
yetaklab boraman ul qizni tetik.
Tungi ko'lankaday ko'rinar bu dam
O'rindiqda qotgan uchalasi ham.





TURNA

Doston

Nam tortgan maydonga kirar burchakda
Tillasimon nayza yarqirab
Shohlar qabristonin qoplar, qaltirab,
Dahshat ichra bolakay pichirlar: «Ey-ey!
Mast-alast mo'rilar chayqalmoqda-ey!»
Qo'rquvdan oqarib, tosh qotadi lab,
Ko'kka qadaladi ko'zdagi vola.
Uni chaqiraman.
Nechun alahsirar o'ngida bola?
Lekin u indamas, shataloq otib,
Yugurib ketadi dahshatdan!
Ko'zoynagim olaman sekin.
Cho'zishadi mo'rilar bo'ynin.
Romchilar barmoqlarin soyasi
Devorda boshlaydi g'alati o'yin.
Ko'lbaqalar qimir etmay cho'zilar shunday, –
Chekinadi xavf-xatar, shunda
Ko'z o'tlari, qamishlar aro
Bosh silkiydi qushday maysalar bunda.
Nima bu? Daryodan olis qirg'oqda
Qattiq qo'l panjasi singari
Tinch to'lqinlar uzra qayrilma qoziq
Tik turar, tek turar, tuhfadir bari –
Suyak qo'llar xotirasiga.
Bo'lak-bo'laklanib shiddat ilkida aniq:
Urinadi ko'z ilg'amas ro'yoga,
Yor vasliga intiq tutqunday yoniq!

Hashamatli metin ko'shklar
Lovullaydi g'azab yolqinlarida,
Jazirama sachratgan o't yolqini,
Mo'jiza qalqidi.
Asrlarni bo'ylagan mo'rilar
Chuvalchanglarday oyoq ildi.
O'yinqaroq mushuk bolasi
Kabi bir sho'xlik qildi.
Poyezdlarda maxsus yozuvlar:
«Chekmaydiganlar» va «Maxsus xizmatchilar uchun» –
Maxsus joylarda kecha-yu kunduz
Qovurg'alar tomir-tomirlargacha chirmashadilar,
Izdan chiqib ketar temir yo'llar ham.
To'lishgan kuz o't-o'lanlari shovullab bir dam
Ostonada to'lqinlar bo'ylab
Suzayotir Mavhumlik yoki
Qirg'oqdan qulagan Tuchkov ko'prigi!
Denisets – qahrli Dnepr bo'sag'asida!
O, odamzod nasli! Sen et misoli,
Undan unib chiqdi o'zga urug'lar!
Bilchillatib shilta loy – balchiqlarga
Gumburlatib chiziq tortib borar poshna, qurg'urlar,
Sizayotir o'zga avlod isyoni beshak!
Ko'tarildi shahar uzra ne shaqur-shuqur –
Temirdan to mis suyak qadar –
Bir donasi kam emas.
Ular qarshisida
Bir chaqadir insoniyat va olam so'qir.
Mo'rilar samoga otilib,
Tik uchar buralib-buralib,
Ishora kelganday bexosdan
Insoniyat qolar halokatga o'ralib.
Ko'z ilg'amas ruhday mo'rilar! Kuylashar:

– Ilonlar zaharli bo'salari-la
Insonlar ko'ksidan topdilar huzur.»
Berahm emasdi aslida Koshey,
Nechun erkalaymiz bashoratlar-u,
Inson to'qiyotgan karomatlarni?
Ko'piklanar suv yuzasi,
To'lqinlarga o'chakishib siljir metin tekis sol,
Ortidan ochilib borar qora tubsizlik,
Kuzgi mevalarni yutar bemalol.
Bug'doy to'kiladi, atrof yalang'och,
Kun yarmida jar solar burchak minora, – och,
Uzun zambarak,
Qushlar diltortar.
Oq ko'ylak bolalar uchishar,
Yostiqchasin quchoqlab, o'ltiradi parishon,
Tirmashadi qayrilma qoziq qovurg'a bo'ylab –
Epchil tojdor to'tiqush bedor.
Bug'ular oroli ishchisi takror
Aqldan ozguday chinqirar: «Qulayman!»
Qo'ng'iz sifat aravachalar,
To'lqinlarda yarqiraydi chaqmoq tarog'i,
Yo'l-yo'l qizil va sariq ranglar,
Jarchi qushlar ildam oyog'i,
Ko'k toqida chayqalib uchar,
Ko'tarilib borar maysalar qo'lday.
Kimdir – nafs quli, kimdir jig'ildon – yemi,
Osmonda do'g'alar chirpirak,
Havo ayniyotir, barglar to'zg'og'i.
Mo'rilardan o'rlaydi tutun,
Yillar sanog'i butun.
Osilib turibdi beo'xshov she'rday –
Ko'prik
Shovqin solayotgan keng shahar uzra.
Kengliklarda na'ra tortar g'alaba,
Qo'llarini rutubatli yenglarga solib,

Tillalarin ko'ksiga chatib,
Muzliklar siljishganday
Mayda-mayda qadam tashlab
Sekin yo'lga tushar to'ralar.

Ko'ksi qushday ko'ksiga
O't yoqadi o'tyoqar.
Ehtimol, u qutqaruvchidir –
Suvdan olib chiqdi qizil ko'ylak bolani.
Panjalari qavariq, yoriq,
Sochlari yopishgan do'ng peshonaga.
Taqvodor yonoqqa ko'zdan to'kilgan shudring
Tovlanadi qush mo'yqalamida.
Qayrilma qoziq – o'tgan zamon, vaqt qoldig'i,
To'rt oyoqli vahshiy qayg'usi – qorin.
Qayrilma qoziqqa qo'qqisdan
Sanchqilar
Yovvoyicha yurish o'rgatar – bori.
O'tyoqar xayolini sehrlar poyezd halokatlari.
Son-sanoqsiz ninachi ko'zlar – kichik-kichik oynalar,
O'rdakday beo'xshov qo'rqinchli o'ylar –
Irkrit yashil tusda ko'rinar azal.
Bu uylar ichida uyg'onib,
Ko'zlarini artar bolalar,
Ko'zlaringni artgin! Bolajon!

Ko'zlaringni art!
Oyoqli maxluq yunglari echkinikidan chayir.
Cho'yan panjaralar – kuzgi yaproqlar,
Maxluq yung qoldirib ketar o'qlarga.
Yovvoyi tortadi temir yo'l zahil,
Maxluq oyoq ostiga to'kilib borar hil-hil
Mo'risifat suyaklar, ularga
Buralib chirmashar kulcha ilonlar.
Shaharga yoyilar uzun soyalar,

Mo'rilar parvozi shafqatsiz, ochiq,
 Zuluklarday qoplar har bir nuqtani.
 Yangi askarlarday hozir-u nozir
 Egilib boradi zuluk mo'rilar
 Cho'zishar, cho'zishar tobora bo'ynin.
 Shoshilib yelishar murdalar birlashaylik deb.
 Hur qizlar qovog'i soliq va sovuq,
 Uzun ko'ylaklarda uchar hilpirab,
 Shamollar kuylaydi – tovushlari yo'q,
 Bo'ynida yarqirab sakkiz qirra hoch
 Samo bo'ylab allaqanday qush
 Qabrlar qirida odimlar,
 Tumshug'ini ochdi olisdan bir qur,
 Og'zining yarmini qulfladi bir nur.
 Karomatga ilashay deb hovliqqan
 O'liklar to'dasi akslandi nurda.
 Qovurg'a yaraldi qudratli.
 Bashorat qilindi azaliy niyat
 Avvaldan belgilab qo'yilgan kabi.
 Shoshilishdi fitnachilarday
 Taxtni ko'tarishga – tinkani quritdi darbadarliklar.
 Kimdir va'da berdi:
 «In'om etgum la'l shaharlar, qishloqlar,
 Faqat bashoratim aylangiz bajo.»
 Huzuriga yeldi qabristonni yorib murdalar,
 Temir qovurg'alar kiyindi to'kis.
 «Vanyusha Svetochkin yo Nezabudkin, –
 ishontirdi kampir, – uchar, ahvoli og'irdir lekin.»
 Zaharxanda kular murdalar,
 Xiyonat qilishar har tirik jonga.
 Saflari tik, saflanar tekis
 Maydon uzra alamzada chayqalib.
 Yarmi pahlavondir, teng yarmi – turna,
 Odamlarni boshqarar zolim,
 Qanotini yozdi – bo'ron uvladi,

Vahshiy jig'ildoni odamlar tomon
Burildi, go'yoki quvladi
Eng qaynoq havoni pechlarga.
Maydonda jon berishga tayyor asirlar
Bosh urgan oynalar chirs-chirs qasirlar.
Iltijo qilishar yangi xudoga.
To'ntarish to'y berdi. Saltanat
O'tdi murdalar-u bashoratgo'yga.
O, inson! Qay dog'uli ruh
Shivirladi maslahatgo'y ham:
«Ruhlar karomati boshlar tantana!»
Telbadek chayqatib aqling yo'qotding –
Turnalarga xiroj to'laysan yana.

Qora o'rmonlari bilan chirmadi seni
Kulfatlar boshdan-oyoq.
Turna taqlid qilar yovvoyiday, boq.
Uyg'onish davri naqshin uylari,
Botqoqlikka botgan bug'u maysasi,
Turna balandlashar, yer-u osmonni
Larzaga soladi mast-alast sasi.
Kimdir kula-kula ichi qotadi –
Tiz cho'kib raqsga tushganda turna!
Turna tumshug'iga ilingan go'dak
Ko'zdan yo'qolarkan, bir zumlik kulgu
Devonaga aylanar beshak.
Olib chiqadilar sho'rlik onalar
Qorasoch oqsuyak bolalarini,
So'nggi nafasgacha ko'kdan ko'z uzmay
Kutishar – kim tinglar nolalarini!
Kimning yuzi kuldi, kim tildan qoldi,
Boshqasi chinqirib yiqildi qo'ldan.
Qur'a tashlab tanlashadi har bir bolani,
Jiddiy muhokama qilishar uzoq
Oqsoqol-u sarkorlar.

So'ng ularni oltin mevalar kabi
Uloqtirar to'r tubiga, tuma tomonga –
Baland osmonga.
To'rlar kataklari aro
Egilar bosh, shovullab to'zg'iydi sochlar.
Odamlar etidan tansiqroq taom
Yo'qdir turnaga.
Oxirida go'daklarni cho'qilay boshlar.
Ustozlar-u payg'ambarlar
Qochib bo'lmas qismatdan
So'z ocharkan ibodatga undashar betin.
Qanotlarini qattiq qoqqanicha u
Zerikkandan ahyon-ahyon
Odamlarni urib tushirar, yamlamay yutar.
Qah-qah urib qiyqiradi goh
Tantanavor: «yanchib o'taman».
Tomirlari, paylari bo'rtib,
Odamlar turnaga topinar.
O'yinga tushadi tuma jo'shqinroq,
Chala-chulpa qanoti bilan
Odamlarni supurib boradi, o, boq,
Odamzod etidan yasadi tumshuq.
O'zini tutolmay sakraydi, asli
Yovvoyilar shunday raqsga tushishar
Mag'lub dushman jasadi uzra.
O, ko'kka irg'itilgan oyoqlar bazmi!
Biroq bir kun ko'tarildi-yu,
Uchib ketdi olis-olisga.
Uni hech kim ko'rmadi boshqa.

Oygul SUYUNDIQOVA tarjimalari



MAJNUN VA LAYLI

Doston

Qadim Kurdistonda ikki shoh,
Birda o'g'il, birida qiz bor.
Yillar tutdi tuhfasin, nogoh
Yoshlar bo'yga yetdi: mard, dildor.

Ko'zlarning oq-qora kumushi,
Paykon otar noz ila mujgon,
Yurak urar, Layli shiviri
Majnun sari yetar begumon.

Hayot shohlar farzandlariga
O'rgumchakday iztirob to'qir.
Bu el aro, tarix qa'rida
Layli-Majnun afsonasidir.

Kuz fasli bo'lsa,
Me'roj kunida
Faqat uch bo'sa
Bergayman unda.
Bir bora yilda,
Yulduzingizni
Yulduzingizga
To'g'rilagayman –
Uch bo'sa sizga.

Savdogarmi, rohib, jangchi, kim,
Ayolmisan, baliqchi, hokim,
Agar uch qalb bo'lsalar erkin,
Bu tangridan – tanlashing mumkin.

Osmonning o'zi qo'llagay,
Nur emadi asta shabboda,
Seni maqsad sari yo'llagay,
Qadim tangri yorug' dunyoda.

Ko'rib kumush qanotli, go'yo
Majnun nozik Laylini, mana,
Qanot qoqar. Sehrgar dono –
O'g'lonlar ichida mardona.

Oltin yog'du nayzasin zari
Yarim tun bag'riga sanchildi,
Majnunning cho'g' bo'salari
Yorga yoqdi, yurakdan bildi.

Ilohiy nur sochadi sirlar
Va so'nadi samo qa'rida,
Tushunarsiz tilda shivirlar
Daraxtlar sho'x yaproqlari-la.

Bir ruh kezib yurar olamda
Borliq ichra sehrlil damlar,
Va mo'jiza sodir shu damda
Hayratlarga tushar odamlar.

O'zgartirar barin so'z, odat,
Aldab qo'yar qiyofa, ammo,
Chaqnoq ko'zlar ishqiga balo,
Turfa sho'xlik, izhorga, albat.
Lovullagan olovday go'yo
Odamzodning tilidir faqat.

Eng qadimgi zamonga shunda
Qaytar zamin qabilalari,
Tosh tosh bilan so'zlashar unda
Ishq haqida, abadiy bari.

Zid kelsa gar, o'rtangan damlar
Duch kelsa gar zamon qahriga.
Barchasini kuylar odamlar
O'zgacha zavq, ilhom dardida.

Zar yog'duning ushbu damida
Ko'kda uchar olovli qanot.
Faqat uchta tilak so'r, unda
Tangri birin beradi, albat.

– Kimki jabr cheksa dunyoda
Bu dunyoda qilich tig'idan,
U dunyoda bo'lgay ziyoda
Ko'milar nur chambari bilan.

Kulrang oqshom, tingla ohini,
Tug'iladi daraxtlar asli,
Atrofiga egib shoxini,
Suhbat qura boshlaydi misli.

Ilohiy lahzada
Daraxt bargida,
Borliq ko'zlari
Boqar narida.

Qalblarni tun, zulmat bosganda,
Sevgi qasri bo'lsa gar sarob.
Ikki chambar xazon, to'zganda,
Ado bo'lmas ikki iztirob.

Dushman bo'lsa ikki qabila,
Qon to'kishgan bo'lsa otalar,
Farzandlari alamga to'lar
Sof muhabbat chorasiz qolar.

Majnun, Layli bir bo'lmas, nochor
«Yo'q» so'zidan xabar toparlar.
Qanday jur'at etishdi, dushvor
Yosh qalblarga bu ne jafolar?

Ota-ona so'zi muqaddas,
Lek yoshlarda bordir ixtiyor,
Layli ko'kka faryod etdi, bas
Iltijo-la so'zladi zor-zor:

– O, ayrilmoq muqarrar bo'lsa,
Ikkimizga ushbu dunyoda.
Ijozat et, Tangrim, bizga –
Yulduz kabi qolsak samoda.

Tangrim, o'zing yer-u ko'k aro
Amring vojib, rahm etgil bizga.
Amr et, endi etaylik fido
Taqdirimiz yulduzimizga!

Iltijoning sassiz boshog'i
Rizq yaratar, misli bo'liq don.
Tangri sari yetdi ovozi
Charaqladi bu tungi osmon.

Hayot og'ir tuyulgan damda
Mo'jizalar bo'ladi nihon,
Ajib rangsiz ushbu olamda
Ajraladi ikkiga osmon.

Baxt-u quvonch chegara bilmas,
Ag'yorlar yo'q makon qaydadir?
Sodir bo'ldi bir mo'jiza, bas,
Porlay boshlar ikkita yulduz.

Osmonning ikki chetida
Ikki taraf nurlanar mangu.
Sizga makon yaraldi unda
Charaqlaysiz, sochgaysiz yog'du.

Yulduz bo'lib uchgaysiz unda
Siz yoqtirgan go'shalar uzra.
Majnun topar yorini bunda,
Yorqin oqshom yog'dularida.

Sen begunoh, pokdomon o'g'lon,
Senga bo'lsin sharqiy osmon,
Senga esa, nozanin Layli,
Yuksal zulmat uzra sen, mayli.

Samolardan minnatdor, mamnun
Layli G'arbni tanladi o'zi,
Sharqiy yulduzlar havozasin
Mixlab qo'ydi zaminga so'zi.

Ko'zin ko'kka qadab keksalar,
yer yonidan uchsa sharpa gar,
Mamnun nurli libos ko'rsalar,
Bu Layli, deb dilda tuyarlar.

Boshlarda charx uradi fikr,
Sharqda, bulut ichiga tushgan, –
Derlar: – Bizning Majnun-ku, axir
Uchayotir, orzular quchgan.



XOJI TARXON¹

Doston

Volga o'qday qo'shilsa uchib,
Jo'shqin dengiz otganda xanda,
Baliqchi ko'z o'ngida o'chib,
Bogda² tog'i bekinar tunga.
Ko'chmanchilar³ azaldan kuylar
Yo'lchilarga rivoyat, go'yo:
Bu tepalik tirik, deb so'ylar,
Tushirganmish uni avliyo, –
Avval bo'lgan tepalik o'tloq!
Avliyoning ismi nimadir,
Unutilib ketgan u, biroq.
Yuksak, moviy, yonbag'ir tikka,
Burgutmakon cho'qqilar, qara!
Maysa qoplab, bo'yalgan ko'kka,
Bobolarning qo'rg'oni uzra.
Ular madhin kuylaydi hamon –
Ko'chmanchi bolatoy – chug'urchuq.
Och it uvlab jo'r bo'lar giryon.
Misli sariq, quruq dasturxon.
Sag'ir o'lka uzra ko'k bo'ron.
Lo'killagan tuyalar o'tgan...

¹ *Xoji Tarxon* – Astraxanning qadimiy nomi (XIII–XIV aa.) bo'lib, afsonalarga ko'ra: avliyo yoki Makkai mukarramaga borib (xoji) kelgan va qullarini ozod qilgan (darxon) kishi.

² *Bogda* (qalm. «muqaddas») – Volganing chap sohilida, Boqinchak ko'li yaqinida Katta va Kichik Bogda tog'lari bor. 1883–1885 yillarda shoirming otasi V.A. Xlebnikov Bosqinchak va Chapchachintuz konlarida nazoratchi bo'lgan, keyinchalik Qalmiq dashtiga o'tkazilib, Kichik derbet ulusiga nozir etib tayinlangan.

³ *Ko'chmanchilar* – Bogda tog'i haqidagi afsonaga ko'ra: ikki avliyo dalay-lama muqaddaslashtirgan tog'ni Ural daryosi sohilidan Volga daryosi sohiliga ko'chirgan. Ulardan biri gunoh o'ylarga botgani uchun tog'ning ostida qolgan va uning qoniga bo'yalgan tog'ning bir yonbag'iri har doim qizarib ko'rinadi.

Cho'l qushlari olov galasi.
Tuya uzun, bukri jon bitgan,
Hurpaygan, kokilli kallasi.
Odamlar yo'q, o'lka kimsasiz,
Qanot qoqib uchar qirg'iylar.
Dasht qorayar; butxona⁴

olis

Qorayadi tomlar-u uylar,
Shahar uxlar, oromda olam,
Horib chop-chop, turfa savdodan.
Har yon yelgan, butxonaga ham,
Dasht mudraydi, charchab g'avg'odan!
Dengiz kabi ulug'vor yurtida
Yo'lchi, ichgil, kuyla, bo'l sarxush⁵.
Uyur yelar, yollari ko'kda,
Yo'l boshlaydi ayg'ir, misli qush.
yelib borar ko'rfaz tomonga,
Qorday qirg'oqdagi muyulish,
G'oyib bo'lar olis yobonda.
Oh, Muhammad va tog'ning bahsi⁶,
Kim ulug'dir, pokiza, yaxshi.
Kimga Qur'on oyati taqdir,
Kimning qoshi bulutday qora.
Tog' tin olar, sukut saqlar dil,
Uchib chiqar kabutar, qara.
Saboq berar: o'zing parvoz qil,
Qoyalarni uyg'otib bu choq.
Ammo sado g'amgin-xirilloq,
Uyg'otadi dahshat va orom,
To'shaydi nur yo'llarga porloq,
Deydi go'yo: yo'lchi, ol orom!

⁴ *Butxona* – lamaizmga sajda qiluvchilar ibodatxonasi.

⁵ *Kuyla va ichgil* – G. Derjavinning Astraxan qahvaxonasi yodga olingan «Qish istagi» she'ridagi «Zaxarin! Kuyla va no'sh et» satriga ishora.

⁶ *Oh, Muhammad va tog'ning bahsi* – «Marko Poloning kitobi»dagi mashhur voqyeaga ishora.

Shunda moviy minora uzra
 Jarqaldirg'och changalida loy,
 U ham mudroq, qanoti ichra
 Mum parranda isi, hoynahoy.
 Ustun usti gulsimon Rimday⁷
 Dashtda juda go'zal bo'lardi.
 Suyuk, noyob kamalak nurda
 Qum ostiga ko'mar tollarni.
 O'zga hayot qurdi bu makon,
 Afrikaday boqar Rossiya⁸,
 Qoshlar uchi qayrilgansimon
 Yuzlar toza, bug'doyrangku-ya,
 Ossuriya⁹ minori ayon.
 Bizga aziz pugachevchilik¹⁰,
 Kokil qo'ygan kazaklar azal.
 Bizlar buni cho'pchakdan bildik.
 Bu jangari pichoqvozliliklar
 Olmonlar, telpaklik bilan olishgan.
 Ko'rdingmi tik, oppoq shaharni
 Volgabo'yi qo'rg'on, muhtasham?
 Tomlariga bosilgan tuproq,
 Undan cholni tashlashgan¹¹ bir dam,
 Qo'rqinchli bong uradi uzoq.
 Endi parvoz qilmas qumoch ham
 G'ozning moviy makoni uzra.
 Jar solmaydi o'lim, ofatdan,
 Jarchilar bu yerlardan ketgan.

⁷ Ustun usti gulsimon Rimday. Rimdagi ustunlar tepasidagi akanfa o'simligi yaproqlari bilan bezalgan qismi.

⁸ *Afrikaday boqar Rossiya* – o'rta asrlardagi sayyoh arablar Volga (Itil) ni Nilga tenglashtirishgan.

⁹ *Ossuriya* – VI Xlebnikov XVI–XVII asrlarda kungurador devor bilan o'ralgan Astraxan minoralari va o'rdani qadimgi ossuriya madaniyatiga taqqoslaydi.

¹⁰ *Pugachevchilik* – XVIII asrdagi dehqonlar qo'zg'oloni Astraxan bilan emas, Qozon bilan bog'liq.

¹¹ *Undan cholni tashlashgan* – Razinning raqibi astraxanlik mitropolit Iosif (1597–1671) jazolanganidan so'ng minoradan uloqtirilgan.

Bu odatni Volga unutdi,
 Qaroqchilar kemasi cho'kkan...
 «Burunni bos»¹² na'rasi bitdi,
 Yangramaydi endi hech qachon.
 Ko'k po'rtana na'ralariga
 Dengiz tashna, simirar hamon.
 Qiyoqo'tlar yopgan bag'riga
 Unga peshvoz – Misriy ummon.
 Prometey o'rmonlarida
 Oqarib ko'rinar bug'ular.
 Dengiz yuzi bo'lib ko'zgular,
 Baliq tishlab tyulenlar suzar.
 Ruslarga bu Hind sari oyna¹³
 yetkazganlar qurol, don yana
 Savdogarlar. Endi yo'q ular.
 Nevaralar yovday tug'ildi.
 ...Yuzi yodda –qirilgan soqol¹⁴
 Cho'pon ahil podasin sasi.
 O'tdi; toshning ostida alhol,
 Tuproq bo'ldi gunoh, orzusi.
 Bo'sh but tokcha nuri yodimda.
 Unda sakrar qurbaqalar jim!
 Va asriy tosh bitiklar¹⁵ bunda!
 Ko'nglim xijil, tashqari chiqdim.
 Charx urardi qaldirg'och gala
 Bobolarning maqbarasida.
 Kezar yashil sallali¹⁶ to'da –

¹² «*Burunni bos!*» – «Soldovchilar, kema burmini bos!» xitobiga ishora.

¹³ *Hindga darcha* – XVII – XVIII asrlarda Astraxandagi karvonsaroyda hind savdo rastalari bo'lgan. Xlebnikov «Hind-rus ittifoqi» deklaratsiyasiga ishora qiladi: «Astraxan, uch olamni birlashtiradi – oriylar, hindlar va kaspiyliklarning uchligi – Iso, Budda va Muhammad dini taqdir izmi bilan bu ittifoq yaralgan».

¹⁴ *Yuzi yodda* – Shoirming bobosi, savdogar va kemalar egasi Aleksey Ivanovich Xlebnikov (1801–1871).

¹⁵ *Asriy tosh bitiklar bunda!* – shoirming bobosi, savdogar A.I.Xlebnikov (1801–1871) shahar qabristonidagi oilaviy maqbaraga dafn etilgan.

¹⁶ *Yashil sallalar* — shu rangdagi bosh kiyimlarini sayidlar kiygan; Astraxanda nasroniylar va musulmonlarning qabristonlari yonma-yon joylashgan.

Muslim sayli, bayram aslida.
Qilich tig'i karomati, boz
Xun olishar otlar suvloqda
(Alam olar) kofirdan qasos.
Qozon posboni – Sumbek¹⁷ ninasi,
Oqdi ko'z yosh va qon daryosi.
Uchdi kaptar tun girdobida,
Do'stlaridan o'zdi, tobida,
So'ng quladi yerga chirpirak,
Izi qoldi bulutda, falak.
Va aks etdi jomlarda¹⁸ oxir,
Tinim berdi aqlga fikr.
Quyilikda machit, saroy boz
Hasrat ko'rar bizning qismatda.
Muazzin azoni xush va soz,
Uyg'otadi xalqni, albatta.
Chag'ir toshdan oppoq ko'ringan
Maydonga mos binolar chunon
Minorga mos devor urilgan
Tepalig-u shahar zo'r qo'rg'on¹⁹.
Ko'p bor tushgan bulutday paykon.
Bir bor bo'lgan Kelin qo'zg'olon²⁰.
Chuh! Qayerdadir ayol yig'lar zor,
Badkor xazon qilgan, u nochor.
Ajab, xursand bo'lar qo'shnilar,
Suvda bo'yin yaltirar, tiniq.
Solnomachi eslaydi, aniq
Yozgan qahr zafarin ular,

¹⁷ *Sumbek ninasi* – Sumbeka (Suyumbika), qozonlik xon qizi, ko'plab afsonalar uning nomi bilan bog'langan.

¹⁸ *Va jomlarda aks etdi* – kaptarxonada suv to'la jomlar qo'yilib, unda osmonda uchayotgan kabutarlar ko'zgudagidek aks etgan.

¹⁹ *Tepaligu shahar zo'r qo'rg'on* – Astraxanga Quyon yoki Uzun tepaligida asos solingan.

²⁰ *Kelin qo'zg'oloni va Sha'ni uchun ko'tarildi Rus* – «To'y qo'zg'oloni», 1705-yilgi o'qchilar isyoni, Pyotr I islohotlari va rus qizlarini "olmon"larga erga berish haqidagi mish-mishlardan kelib chiqqan.

Ozod xalqning qirilganini,
Qabrlarga qo'yilganini.
Kelib qoldi bu qizil zamon
Uchqur Raning²¹ etagi tomon.
Urush, qilich, sizlar ham hamon,
To'p-chillak-la bandsiz dengizda,
Volga erki, omadli o'g'lon,
G'azabin shimolga otgan kezda.
«Ont ichaman, bizni uylashar,
Olmon qizga qayta, alhazar!»
Sharq zar nurli chambarin kiydi,
Qo'zg'algandi Rus oriyatdan
Uch daryoga nayza botirib²²,
Hukmdorning raqibi turib.
Qisqa aytay: Lomonosov ham
Muz ummonga yuborilgan dam,
Qutqarmoqqa velikorosni,
Unut bo'lgan ko'p qondosh rusni.
Ammo, netsin! Unutib uni,
To'da bo'lib qichqiramiz biz:
Endi poyingga bosh uramiz²³.
Chiqar xvalinliklarning²⁴ uni
Volinskiyning²⁵

o'limi yodda.

Boshsiz ko'milganlar alami
Qadim qo'shiq bu, favqulodda.
Dashtga boq: g'ijirlar arava,
Oqqushlar qo'shig'i vahshatli,

²¹ Ra – Volga.

²² Uch daryoga nayza botirib – uch daryo – Don, Volga, Yoyiq – «hukmdor raqibi» Yemelyan Pugachyov shu daryolar bo'ylab harakat qilgan.

²³ «Oyoqqa bosh uraman» — «qulluq qilmoq»; bu yerda tom ma'noda: «oyoqqa yiqilmoq».

²⁴ Xvalin – Kaspiy dengizining solnomalarda atalishi.

²⁵ Volinskiy A.P. (1689–1740) – Pyotr I davridagi davlat arbobi, Astraxanning birinchi gubernatori (1719-yildan), Biron va xorijiy bosqinchilarga qarshi kurashgan, qatl etilgan.

Yodda Oleg²⁶ o'limi yana,
 Yoshlik bashorati dahshatli.
 Ikki shoxli chorva xudosi²⁷
 Poda ko'kka yoyilgan zamon,
 G'amgin turar. Benaf sadosi!
 Qayga ketdi asriy sharaf-shon?
 Qilt etmay tur, shimolning o'qi²⁸,
 Samo kemasining sinchiday, faqat.
 Bo'ronda tug'ildik, suzarmiz, balki
 Boqamiz shiddatli, sirli va g'alat.
 Samoviy xatlar nurlanadi, biz
 Dahshatni sevamiz, girdob, gunohni.
 Yoshlikni bo'ronda tug'day tiklaymiz,
 Olov qo'lda chizib kulguli chog'ni.
 Eh, musulmonlar, ruslar singari
 Ruslarga xosdir balki, islom ham.
 Chiroyli ko'z, qisiqroq bari,
 Ammo boqqandir uzoqqa bardam.
 Men ne qilay, gunohkor tilim?
 Siz o'zgasiz, boshqacha men ham!
 Kazak puflar qilichin changin,
 Yashab doim qilich damida.
 Sig'inadi notavon cho'pga,
 Hindda jonlar hayot g'amida.
 Bu shaharni daryo bosganda,
 Un to'la qop²⁹
 eltgan qirg'oqqa.
 Moviy ko'zni qoshlar to'sganda,
 Kibr-u havo nochor bir choqda,

²⁶ *Yodda Olegning o'limi* – ya'ni ilon, Pushkinning «Karomatli Oleg haqida qo'shiq» she'ridagi timsolga ishora.

²⁷ *Chorva ma'budi* – Veles.

²⁸ *Shimolning o'qi* – Xlebnikov fikricha rus davlatchiligining geosiyosiy g'oyasi: «shimol – janub» o'qidir (an'anaviy «g'arb – sharq» g'oyasiga qarama-qarshi).

²⁹ *Un to'la qop bosgan qirg'oqqa* – shoirming amakisi L.A.Xlebnikov savdogarlarni shaharni suv toshqinidan asrab qolish uchun qop-qop unni xayriya qilishga ko'ndiradi va bu xizmati uchun Astraxanning faxriy fuqarosi bo'ladi.

Tuya qovoq uygan, so'z demas,
Labin burib irshayar abas.
Xuddi bo'm-bo'sh qo'lgopga mengzar,
O'rkachi lapanglar ustida,
Kumush tanga tutgan qiz dilbar
Do'q uradi uning ustida.
G'amli do'stga o'tinchi bisyor
Muzqaymoq sotuvchi ko'zida!
Jandasining yirtig'i ham bor.
Ammo bunda bo'lgan Osiris.
Bu shahar dengizning posboni!
U dengizga poytaxtdir, shaksiz.
Ossuriya minorasi ishora
Qishloqni o'ragan qo'rg'onday.
Oq, tiniq tun bulutday, qara
Yuksak, oqish turar butxona,
Qo'ng'irog'i³⁰ tebranib asta.
Elni mudom tinchlikka chorlar.
Jiydazorda pishganda jiyda,
Yo'sin³¹ ishqiy so'zni yashirar,
G'arib g'ozcha³² ustida titrar
Go'yo yelkan samoni quchar,
Dengizdan sof nasimlar kelar,
Turfa baliq sohilga urilsa.
Bu shaharga suv solgan chambar,
Umumiydir, xotinlar³³
esa.


Xumoyun AKBAROV tarjimalari

³⁰ *Qo'ng'irog'i tebranib asta* – Uspenskiy ibodatxonasi (XVIII asr boshlari.) hududida Astraxan minorasi va asosiy Prechistenskiy darvozasi qo'ng'iroq minorasi bilan qurilgan (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).

³¹ *Yo'sin* – yovvoyi zaytun

³² *G'ozcha* – yelkan ostidagi yopiq yuk tashuvchi kema.

³³ *Umumiydir, xotinlar* – sharqlik savdogarlar (hindlar, forslar), XVI–XVIII asrlarda Astraxanda uzoq yil yashaganda mahalliy ayollar bilan vaqtinchalik nikohdan o'tgan.



VELIMIR XLEBNIKOVNING HAYOTI VA IJODI

Velimir Xlebnikovning nomi rus she'riyatida o'zgacha faxr, g'urur va shan bilan yodga olinadi. O'zining juda qisqa umri davomida shoir asrlarga tatigulik she'rlar va dostonlar yozib qoldirdi. U rus futurizmining asoschilari ro'yxatidan manguga joy olib ulgurdi. Shoirning she'rlari rang-barangligi, badiiy ifodasining yorqinligi va ajib latifligi, satrlarning serma'noligi bilan o'quvchini o'ziga jalb etadi. Shoir futurizm asoschilaridan biri bo'lsa-da, hayotga real ko'z bilan qaraydi, uni borligicha tushunadi. U o'zining bir she'rida shunday degandi:

*O'layotgan otlar – nafas oladi,
Gullar o'lar ekan – sokin so'ladi,
O'lgan quyosh – so'nib ufqqa bo'ylaydi,
Odamlar o'larkan – qo'shiq kuylaydi.*

Vladimir Xlebnikov 1885-yilda Astraxan guberniyasida tug'ilgan. Uning bolaligi ko'chmanchilikda o'tgan bo'lsa-da, Rossiya tarixining chuqur bilimdoni bo'lib yetishdi. Bunga esa onasi – tarixchi Yekaterina Xlebnikova sabab bo'ldi. U tabiiy fanlarga qiziqdi. Matematika va fizika fanlarini ishtiyoq bilan o'rgandi. 1903-yilda studentlar namoyishida faol ishtirok etgani uchun bir oyga qamaldi. 1904-yilda esa u Qozon universiteti talabaligidan o'chirildi.

Shu yil yozda esa u avf etilib, o'qishini davom ettiradi. U 1904–1907-yillarda otasi kabi ornitologiya bilan qiziqadi va shu sohaga oid bir necha maqolalar chop etadi.

Uning dastlabki she'rlari 1905–1906-yillarda nashr etiladi. Shoir o'z she'rlarida insoniy kechinmalar, xalqning o'sha davrdagi chekayotgan azob uqubatlarini o'z she'rlarida haqqoniy ifoda etadi. Jumladan uning «Ochlik» nomli she'rida shunday jumllarni o'qish mumkin:

*Nega o'rmon bo'ylab qochar bug'u, quyonlar
Olis ketarlar?
Tog'terak po'stlog'ini yedi odamlar
Qora qarag'ayning yashil barglarin yedilar...*

Shoir inson erkinligi va ozodlik haqida turkum she'rlar yozadi. U ozodlikni o'ziga xos ohanglarda tarannum etadi. Masalan, «Hammaga erkinlik» she'ridan quyidagi satrlarni o'qish mumkin:

*Hamma erkinlikda – bundan buyon
Oqqush qanoti bor uchqur odamlar.
Qo'lida mehnatning alvon bayrog'i
Erkni yondirguvchi otash ko'zlar!*

Shoir jamiyatning oddiy bir odami sifatida ko'p narsa talab qilmaydi. U insoniylik buyum va mansab bilan o'lchanmasligini to'liq idrok etadi va yozadi:

*Menga kerak emas ko'p narsa!
Bir parcha non
Qultum sut bo'lsa
Yana tepamdagi bu osmon
Va hosildor bulutlar suzsa!*

Velimir badiiy ijod bilan muhim shug'ullanish maqsadida 1908-yilda Sankt-Peterburgga ko'chib keladi. U bu yerdagi yosh-shoirlar ijodiy guruhidan munosib o'rin egallaydi va simbolist shoirlar Aleksey Remizov, Sergey Gorodetskiylar bilan tanishadi. Shoir 1909-yilda o'ziga Velimir degan taxallusni tanlaydi. Bu so'z janubiy slavyan tilida «katta dunyo» degan ma'noni ang-

latadi. Bu esa shoirning rus tiliga va qadimiy slavyan tillariga boʻlgan eʼtibori namunasidir. Shoir oʻz sheʼrlarida ham qadimiy slavyan tillariga juda kuchli eʼtibor qaratadi. Shu sababli ham uning tili oʻziga xosligi va faqat oʻziga xos boʻlgan uslubga egaligi bilan ajralib turadi. Uning sheʼrlarida gʻayrioddiy leksika muqim oʻrin egallaydi. Bu haqda hatto Vladimir Mayakovskiy shunday deb yozgan edi: «Xlebnikov «soʻzlarning davriy tizimi» umumlashmasini yaratdi.»

Xlebnikov ijodining boshlarida umumslavyan til muhim oʻrin tutadi. Bu esa 1907–1913-yillarga toʻgʻri keladi. 1919-yildan keyingi ijodida koʻproq «yulduz»li (boshqacha aytganda mubham) soʻzlar uchraydi. Shoirning ijodida muhim oʻrin egallagan «Turna» dostoni 1909-yilda nashr etiladi. Shoirning birinchi kitobi 1912-yilda «Ustoz va shogird» nomi bilan nashr etildi. 1913-yilda esa «Hayqiriq» nomli kitobi dunyo yuzini koʻrdi. Shundan soʻng shoirning juda koʻp sheʼrlari va dostonlari futuristlarning toʻplamlaridan asosiy oʻrin egallaydi. Jumladan, «Urush – oʻlim» dostoni 1914-yilda ana shunday toʻplamlarning biridan oʻrin olgan.

Shoir ijodida sharq mavzusi ham alohida ahamiyatga ega. Uning «Eron qoʻshigʻi», «Forsda tun» kabi sheʼrlari va «Majnun va Layli» dostoni uning Eronga va Bokuga qilgan safarlari natijasida dunyo yuzini koʻrdi.

Shoir Rossiyaning juda koʻp shaharlarida boʻladi va goʻzal sheʼrlar yozadi. U 1922-yilda Novgorodga qilgan sayohatida ogʻir kasallikka uchraydi va oʻsha yerda vafot etadi. Bu vaqtda shoir endi 37 bahorni qarshilagan edi. 1960-yilda u Moskvadagi Novodevichye qabristoniga qayta dafn etiladi.

Velimir Xlebnikov oʻzi tanlagan taxallusga yarasha ijod qildi va oʻzidan boy ijodiy meros qoldirdi. U dunyo kitobxonlari qalbini zabt etgan shoirlar qatoridan munosib joy oldi. Shoir bir sheʼrida shunday degandi:

*«Yana shuni aytaman takror
Yulduzlar yonida sozsiz nomim bor».*

1986-yilda shoirning 100 yilligiga atab, uning 6 tomdan iborat kitobi Rossiyada nashr etildi. Samodagi kichik yulduzlardan birining nomi shoir sharafiga qo'yilgan.

Keyingi yillarda Xlebnikov ijodiga bo'lgan qiziqish yana ham kuchaydi. Uning ma'nolarga to'la she'rlari o'zbek tilida ham nashr etila boshlandi. Qo'lingizdagi kitob esa muallifning o'zbek tilidagi dastlabki nashridir. Shoir ijodidagi so'zlar tajassumi ko'p ma'nolarga ega bo'lganligi sababli qiyosiy she'rlar ham berildi. O'ylaymizki, shoir ijodi sizni ham befarq qoldirmaydi

Bahrom AKBAROV





MUNDARIJA

SHE'RLAR

Karim Bahriyev tarjimalari

| | |
|---|----|
| Osiyo | 4 |
| Alferovo | 5 |
| «Yillar, odamlar va xalqlar...» | 7 |
| Ochlik | 8 |
| Yer shari raislarining xitobnomasi | 11 |
| Hammaga erkinlik | 18 |
| O'lar chog'i | 19 |
| Dunyo | 20 |
| Istak | 21 |
| Mehnat navro'zi | 22 |
| Osiyo | 24 |
| «Agar insoniyatni soatlarga aylantirsam» | 25 |
| «Yana bir bor, yana bir bor, ...» | 27 |
| Aza | 28 |
| Gapiring, Qichqiring, Olib kelingiz! | 30 |
| «Badbashara maxluq – cho'qqida yashar» | 31 |
| «Men bilmayman, zamin aylanar yo yo'q, ...» | 32 |
| «Men Sudak bo'g'ozini o'tdim kechib.» | 33 |
| «Men muzaffarman: endi ...» | 35 |
| «Fillar dandon tishlari bilan shunday urishardiki, ...» | 36 |
| «Qushlar uchmay qo'ydi endi ...» | 37 |
| «Rossiya ichishni unutdi tamom, ...» | 38 |

O'roz Haydar tarjimalari

| | |
|-----------------------------|----|
| Iroda | 39 |
| Qachonki o'layotganda | 40 |
| Bugun yana boraman | 41 |

| | |
|--|----|
| Yulduzlarga to'la tun..... | 42 |
| Afsonaviy maxluq..... | 43 |
| Yana bir bor..... | 44 |
| Yillar, odamlar..... | 45 |
| Oqshom, soyalar..... | 46 |
| «Chuldirab-u ham sayrab, ...»..... | 47 |
| Odamlar, qachonki ularni sevishganda | 48 |

O'ktam Mirzayor tarjimalari

| | |
|--|----|
| Voqif etsam edi insoniyatni..... | 49 |
| Men bilmayman, bu yer aylanarmi, yo'q..... | 51 |
| Ko'p narsa kerakmas!..... | 52 |
| Ozodlik kelmoqda oyog'i yalang..... | 53 |
| Yillar, odamlar, ellar..... | 54 |
| Kuylang menga..... | 55 |
| Qafasdagi qush..... | 56 |
| Raddiya | 57 |
| Navro'z bayrami | 58 |
| Hayot..... | 60 |
| Odam sevib qolsa..... | 61 |
| Chigirtka | 62 |
| Kulgili qarg'ish | 63 |
| Yana, yana..... | 64 |
| Bir paytlar..... | 65 |
| Men g'olibman..... | 66 |
| «...Dan»..... | 67 |
| Hammaga ozodlik..... | 68 |
| Tun, bepayon osmon..... | 69 |
| Raqamlar..... | 70 |
| Tulporlar pishqirar o'lar chog'ida | 71 |
| Fillar tishlarini toshlarga urib... .. | 72 |

Tursun Ali tarjimalari

| | |
|--|----|
| Yillar, odamlar va ellar..... | 73 |
| Osiyo..... | 74 |
| «Maynavozning xira kuz tunukasin ...»..... | 75 |
| Ochlik..... | 76 |

| | |
|-------------------------------------|----|
| «Sovuq muzli irmoqlardan, ...»..... | 79 |
| Erkinlik | 82 |
| «Oqshom ...»..... | 83 |
| «Zamon girdobida qamishlar» | 84 |
| Alfyorovo | 85 |

Ochil Tohir tarjimalari

| | |
|----------------------------|-----|
| Kuz..... | 87 |
| Izg'irin..... | 88 |
| Nigoh..... | 88 |
| Oqshom | 89 |
| Burjlar | 90 |
| Nay..... | 91 |
| Otxona, ko'k ot... .. | 92 |
| Dilbar qizlar haqda..... | 93 |
| Manzara..... | 94 |
| Vaqt tosh..... | 95 |
| Qopdan sochildi | 96 |
| Chigirtka | 97 |
| Bobeobi..... | 98 |
| Raqamlar | 99 |
| Yulduzlararo yo'l | 100 |
| Men uchun | 101 |
| Takror-takror aytaman..... | 102 |
| Fillar jangi | 103 |
| Kuz..... | 104 |
| Olov bog' | 105 |

Zikrilla Ne'mat tarjimalari

| | |
|-------------------------------------|-----|
| Qafasdagi qush | 106 |
| Oqshom | 107 |
| Chigirtka | 108 |
| Sevib qolgan chog'da insonlar | 109 |
| Kulgu afsuni | 110 |

| | |
|---|-----|
| Ketayotib qo'shiq aytdi u | 111 |
| Otlar o'layotib – nafas olishar..... | 112 |
| Teraklar po'stlog'i teshilgan joyda..... | 113 |
| «Men bilmayman, Aylanarmi-aylanmasmi yer»..... | 114 |
| «Ey, siz xalq tinchini misli sherlardek, ...» | 115 |
| Men g'alaba qozondim | 117 |
| Yillar, odamlar hamda xalqlar | 118 |
| Kabutarni oziqlantirish | 119 |
| Osiyo | 120 |

Bahrom Akbarov tarjimalari

| | |
|--------------------------|-----|
| Umr | 121 |
| Tasvir..... | 122 |
| Cho'qqidagi mahluq | 123 |
| Yana bir bor..... | 124 |

Abdumajid Azim tarjimalari

| | |
|---------------------|-----|
| Osiyo | 125 |
| Hayot..... | 126 |
| Ocharchilik..... | 128 |
| Eron qo'shig'i..... | 130 |
| Forsda tun..... | 131 |
| Alferovo | 133 |

Rustam Musurmon tarjimalari

| | |
|--|-----|
| Bobeobi kuylar dudoqlar..... | 135 |
| O'lar chog'ida..... | 136 |
| Tilagim | 137 |
| «Qora ko'zlarining etigi bilan...» | 138 |
| G'alati tun..... | 139 |

Oygul Suyundiqova tarjimalari

| | |
|--------------------------------------|-----|
| «Olisharlar dandon tish...» | 142 |
| «Yana bir, yana bir marta –...»..... | 143 |
| «Yillar, odamlar, xalqlar...» | 144 |

| | |
|-----------------------------------|-----|
| «Oqshom, soylar...» | 145 |
| «Yuksakda yashar mahluq...» | 146 |

DOSTONLAR

Oygul Suyundiqova tarjimalari

| | |
|-------------|-----|
| Shoir..... | 148 |
| Turna | 162 |

Humoyun Akbarov tarjimalari

| | |
|---|-----|
| Majnun va Layli..... | 169 |
| Xoji Tarxon | 174 |
| Velimir Xlebnikovning hayoti va ijodi <i>Bahrom Akbarov</i> | 172 |

Adabiy-badiiy nashr

VELIMIR VLADIMIROVICH XLEBNIKOV

QAFASDAGI QUSH

She'rlar va dostonlar

Rus tilidan: *Karim Bahriyev, O'roz Haydar, O'ktam Mirzayor, Tursun Ali, Oygul Suyundiqova, Ochil Tohir, Abdumajid Azim, Zikrilla Ne'mat, Humoyun Akbarov, Rustam Musurmon, Bahrom Akbarov* tarjimai

Nashr uchun mas'ul *Azimboy Boboniyozov*

To'plab, nashrga tayyorlovchi *Bahrom Akbarov*

Muharrir *Bahrom Akbarov*

Rassom-dizayner *Behzod Zufarov*

Texnik muharrir *Yekaterina Stepanova*

Kichik muharrir *Matluba Salimova*

Musahhah *Maqsuda Ishanxanova*

Kompyuterda tayyorlovchi *Kamola Hamidullayeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 29-oktabrda ruxsat etildi.

Bichimi 60×90^{1/16}. Ofset qog'oz. «New Roman» garniturasida ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 12,0.

Nashr tabog'i 14,58. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 21-465.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.


e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz.

www.iptd-uzbekistan.uz

X 63 Xlebnikov, Velimir
Qafasdagi qush [Matn]: she'rlar va dostonlar / V. Xlebnikov. –
Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 192 b. (Rus adabiyoti
durdonalari)

ISBN 978-9943-7606-8-4

UO'K 821.161.1-1
KBK 84(2Ros-Rus)





V.V. Xlebnikov

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7606-6-4

